

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**



**BUXORO OZIQ-OVQAT VA ENGIL SANOATI
TEXNOLOGIYASI INSTITUTI**

"Marketing" kafedrası

kat. o`qit. Namazova N. J, kat. o`qit. Rustamov N.I.

**Makroiqtisodiyot fanidan amaliy mashg`ulotlar o`tish uchun
uslubiy qo`llanma**

BUXORO-2008

"Marketing" kafedrası yig`ilishida ko`rib chiqildi.

Bayon № _ _ _ _ _ 2008 y.

Institut uslubiy kengashida ko`rib chiqildi.

Bayon № ____ 2008 y.

Taqrizchilar:

Buxoro iqtisodiyot
va bank kolleji direktori
Dots. Nizomov A.B.

"Menejment" kafedrasi dots.Ulashov X.A.

Ushbu uslubiy qo`llanma "Makroiqtisodiyot" fani muammolari bilan bog`liq bir qator amaliy masalalarning mohiyati ochib berilgan bo`lib asosiy makroiqtisodiy kursatkichlar, makroiqtisodiy muvozanat asoslari, jami talab va jami taklif nazariyasi, iste`mol talabi nazariyasi, pul va tovar bozorlarining uzaro bog`likdagi xarakatlari fiskal va monitar siyosat ochik iqtisodiyot sharoitidagi muvozanat modellari yoritib berilgan.

Uslubiy qo`llanma menejment, iqtisodiyot va marketing yo`nalishlari bo`yicha ta`lim olayotgan Oliy o`quv yurtlarining talabalariga mo`ljallangan.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
1- MAVZU. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO`RSATKICHLAR.	5
2-MAVZU. JAMI TALAB VA JAMI TAKLIF MUVOZANATI.....	11
3 - MAVZU. ISTE`MOL TALABI NAZARIYASI.....	16

4- MAVZU. "DAROMADLAR - XARAJATLAR" MODELIDA TOVAR BOZORLARI MUVOZANATI.	20
5-MAVZU. PUL BOZORI.....	26
6- MAVZU. IKKI YOQLAMA MUVOZANAT.	30
7 - MAVZU. MAKRODARAJADA UMUMIY MUVOZANAT.....	36
8-MAVZU. IQTISODIY O'SISH	40
9-MAVZU. FISKAL SIYOSAT VA DAVLAT BYUDJETI.	45
10 - MAVZU. MONETAR SIYOSAT.	49
11 - MAVZU. OCHIQ IQTISODIYOT MODELIDA MUVOZANAT.....	58
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	62

KIRISH

O`zbekiston Respublikasida bozor iqtisodi - bizning xalqimiz oxirgi yillarda boshdan kechirayotgan qiyinchiliklarni bartaraf etishdagi zaruriy vosita hisoblanadi. Bozor iqtisodining o`rnatilishi oxir ish, yo`li ko`p qirralidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tub, o`zgacha boshqarish uslublarini qo`llashni, hamda shunga mos ravishda bozor iqtisodi asoslarini va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini biladigan rahbar va mutaxassislarni talab etadi.

Mavjud resurslardan optimal foydalanish va barqaror iqtisodiy o`shish sharoitlarini ta`minlash uchun iqtisodchi makroiqtisodiy jarayonlarni bilishi, tuxri iqtisodiy xulosalar chiqarishi va ularni asoslab berishni bilishi zarur. Bunday mutaxassislarni tayyorlashda "Makroiqtisod" fanining roli muhimdir.

Fan makroiqtisodiy iqtisodni tartibga solishning nazariy va amaliy savollarini, bozor tizimining amal qilish asoslarini o`rgatadi. Bunday takomillashgan tizim hamma rivojlangan mamlakatlarda mavjud. Uni bizning sharoitimizga moslashtirish esa uta murakkab, ammo dolzarb vazifadir.

Bu fan asosiy makroiqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash uslublarini, umumiy muvozanat nazariyasini, iqtisodiy o`shish asosiy printsiplari va xarakteristikalarini, makroiqtisodiy muvozanatni ta`minlashda davlatning roli, fiskal siyosat, monetar siyosat asoslarini o`rganadi.

SHunday qilib, fanni o`qitishdan maqsad bozor iqtisodiga o`tish davrida talabalarning jamiyatimiz iqtisodiy taraqqiyoti yo`lida murakkab sharoitlarga moslashish uquvini o`rganishdir.

Ushbu uslubiy qo`llanma "Makroiqtisodiyot" fani amaliy mashg`ulotlar masalalari va diagnostik testlarni o`z ichiga olgan.

"Makroiqtisodiyot" fani iqtisod nazariyasi asoslari, mikroiqtisod, matematika, filosofiya, psixologiya, iqtisodiy tahlil, moliya va statistika, marketing asoslari, menejment va boshqa fanlar bilan bog`liq.

"Makroiqtisodiyot" kursi iqtisodiy fanlar asosi bo`lgan iqtisod nazariyasi asoslariga tayanadi, lekin hech qachon bu fanning mazmunini takrorlamaydi. Iqtisod nazariyasi umumiy iqtisodiy muammolarni o`rgansa, makroiqtisod bu muammolarni chuqurroq tahlil qilib, echish yo`llarini ko`rsatadi.

Biz, bu o`quv qo`llanmadan foydalanadigan talabalar shu sohada tayyor mutaxassis bo`lishlari va yangi iqtisodiy muammolarni tahlil qilishda unda bayon etilgan tamoyillardan hayotda samarali foydalana bilishlarini xohlaymiz.

Hurmatli talabalar, har bir mavzudan keyin hamma misollarni echish va holatlarni tahlil qilishga harakat qiling. Mavzu oxirida mavzuning asosiy xoyasi nimadan iborat ekanligi va qanday yangi bilimga ega bo`lganligingiz to`g`risidagi savolga mustaqil javob berishga o`rganing.

1- MAVZU. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1- mashg'ulot.1-jadval ma'lumotlari bo'yicha hisoblang.

1- jadval

	Mln.so'm
Kredit uchun protsent	12
Yalpi xususiy investitsiyalar	55
Ish haqi	218
Korporatsiyalar foydasi	113
Xususiy tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan bilvosita soliqlar, soliq majburiyatlari va transfert to'lovlari.	22
Ijaraga olinadigan mulk egalariga renta to'lovlari	20
Korporatsiyalar foydasiga soliq	50
Tovar va xizmatlar sof eksporti	9
Tovar va xizmatlarning davlat xaridi	90
Sof xususiy investitsiyalar	45
Mulkdan olinadigan daromad	21
Davlat korxonalariga sof subsidiyalar	2
Aholiga transfert to'lovlari	23
Iste'mol xarajatlari	260

- daromadlar bo'yicha xususiy YaMM ning hajmini.
- xarajatlar bo'yicha YaMM ning hajmini
- SMM hajmini.
- milliy daromad hajmini.

2-mashg'ulot. Faraz qilamiz, milliy ishlab chiqarish ikki mahsulotdan iborat: X (iste'mol tovari) va U (ishlab chiqarish vositasi). Joriy yilda 500 birlik X (birligi narxi - 2 so'm) 20 birlik U (birligi narxi 10 so'm) tovar ishlab chiqarilgan. Joriy yilning oxirida ishlatilgan 5 mashina (U tovar) yangisi bilan almashtirilish kerak.

Hisoblang.

- YaMM miqdorini
- SMM miqdorini
- iste'mol hajmi va yalpi investitsiyalar hajmini.
- iste'mol hajmi va sof investitsiyalar hajmini.

3- mashg'ulot. Quyidagi ma'lumotlar keltirilgan (mlrd so'mda)

	2- Jadval	
	Birinchi yil	Ikkinchi yil
Yangi qurilish qiymati	5	5
Ishlab chiqarilgan jihoz qiymati	10	10
Ishlab chiqarish iste'mol tovarlari qiymati	110	90
Iste'mol qilingan tovarlar qiymati	90	110
Binolar amortizatsiyasi	10	10
Jihozlar amortizatsiyasi	10	10
Yil boshidagi iste'mol tovarlari zaxirasi	30	50
Yil oxiridagi iste'mol tovarlari zaxirasi	50	30

a) birinchi va ikkinchi yillarda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari hajmi ularning iste'moli hajmi bilan mos kelmaydi. Bu har bir yil oxiridagi zaxiralar miqdoriga qanday tovarlar etildi.

b) yuqorida keltirilgan axborot asosida quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang:

	Birinchi yil	Ikkinchi yil
YaMM	-----	-----
Iste'mol	-----	-----
Yalpi investitsiyalar	-----	-----
SMM	-----	-----
Iste'mol	-----	-----
Sof investitsiyalar	-----	-----

4-mashg'ulot. YaMM 5000 so'm. Iste'mol xarajatlariq 3200 so'm, davlat xarajatlari 900 so'm, sof eksport 80 so'm. Hisoblang:

- a) investitsiyalar miqdorini.
- b) eksport 350 so'm bo'lganda import hajmini
- c) ammortizatsiya qiymati 150 so'm bo'lganda SMM ni

5-mashg'ulot. Quyida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, hisoblang:

- a) yollangan ishchilar mehnatiga haq to'lash hajmini.
- b) sof eksport hajmini.
- c) sof xususiy investitsiyalar hajmini.

	3- Jadval.
Eksport	367
Dividendlar	60
Amortizatsiya	307
Ish haqi va moyona	1442
Tovar va xizmatarning davlat xaridi	577
Renta	33
Bilvosita soliqlar	255
Ish haqi va moyonaga qo'shimcha to'lovlar	280
Yalpi xususiy investitsiyalar	437
Korporatsiyalar daromadiga soliq	88

Transfert to'lovlari	320
Kapital uchun protsent	210
Individual mulk egalari daromadi	132
Iste'mol xarajatlari	1810
Import	338
Sotsial sug'urta to'lovlari	148
Taqsimlanmagan foyda	55
Shaxsiy daromadlarga soliq	372

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Shaxsiy daromad -bu:

- a) yil davomida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati
- b) uy xo'jaliklari tomonidan yil davomida olingan daromad
- c) soliqlar to'langandan keyin shaxsiy xarajatlarga mo'ljallangan daromad
- d) YaMM minus amortizatsiyasi
- e) xususiy manbalardan jamg'armalar yig'indisi

2. Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri YaMM tarkibiga kiradi?

- a) uy xo'jaligi xizmatlari
- b) qo'shniidan eski avtomobil sotib olish
- c) brokerdan yangi aktsiyalar sotib olish
- d) kitob magazinidan yangi darslik sotib olish
- e) korporatsiyadan obligatsiyalar sotib olish

3. Iste'mol qilingan kapitalga ajratmalar - bu:

- a) sof investitsiya
- b) sof xorijiy investitsiya
- c) amortizatsiya
- d) iste'mol tovarlar sotib olishga mo'ljallangan fondlar
- e) shaxsiy ehtiyojlarni bilvosita yo'l bilan qondirishga mo'ljallangan vositalar

4. Agar MD dan korporatsiyalar foydasiga soliqni, taqsimlanadigan foydani va sotsial sug'urtaga to'lovlarni ayirib, so'ng transfert to'lovlarni qo'shsak, unda hosil bo'lgan qiymat, bu:

- a) shaxsiy daromad
- b) amortizatsiya
- c) sof milliy daromad
- d) ixtiyordagi daromad
- e) YaMM

5. Transfert to'lovlari - bu:

- a) uy xo'jaliklariga ular tomonidan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan to'lovlarning to'lanishi
- b) fakat hukumatning alohida individlarga to'lovi
- c) milliy daromadga qo'shilmaydigan daromad qismi

- d) a), b), c) punktlardagi hamma javoblar
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

6. Ixtiyordagi daromad - bu:

- a) shaxsiy daromad minus individual soliqlar va to'lovlar
- b) ish haqi, moyoona, renta va kapital protsentini o'z ichiga oluvchi qiymat
- c) ish haqi, moyoona va kapital protsenti minus shaxsiy daromadga soliq
- d) a), b), c) punktlardagi hamma javoblar
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

7. Quyidagi miqdorlardan qaysi biri MD hajmini aniqlashda qo'llanilmaydi?

- a) korporatsiyalar foydasi
- b) davlat transfert to'lovlari
- c) renta daromadi
- d) ish haqi va moyoni
- e) kreditga olingan kapital uchun protsent to'lovlar

8. YaMMni ishlab chiqarishda davlat sektorining xissasini aniqlash uchun nima zarur:

- a) tovar va xizmatlar xarid qilishga ketadigan davlat xarajatlarini hisoblash
- b) xizmatlar kategoriyasiga kirmaydigan tovarlarni xarid qilishga ketadigan davlat xarajatlarini aniqlash
- c) faqat iste'mol tovarlari xaridiga ketadigan davlat xarajatlarini hisobga olish
- d) faqat oxirgi mahsulotni xarid qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat xarajatlarini hisobga olib, oraliq mahsulotlarga davlat sarflarini chiqarish
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

9. YaMM va SMM milliy hisoblarida "investitsiya" tushunchasi nimani o'z ichiga oladi?

- a) davlat korxonasida ishlab chiqarilgan har qanday mahsulot
- b) har qanday aktsiya xaridi
- c) yil oxirida zapaslarning o'suvi
- d) iste'molchi tomonidan sotib olingan, lekin yil oxirigacha to'la iste'mol qilinmagan har qanday tovar
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

10. Yalpi xususiy investitsiyalar quyidagilardan qaysi birini aniqlashda hisobga olinadi?

- a) daromadlar bo'yicha YaMMni
- b) xarajatlar bo'yicha YaMMni
- c) xarajatlar bo'yicha SMMni
- d) shaxsiy daromadni
- e) ixtiyordagi daromadni

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Sey qonuni nima o`rtasida bog`liqlikni ifodalaydi
 - a) Agrar sohada ob-havo sharoitlari va ishlab chiqarish
 - b) Pulga talab va taklif
 - v) Jamg`armalar, investitsiyalar va protsent darajasi
 - g) kredit, ishlab chiqarish va mehnat bozori
 - d) ishlab chiqarish, daromad va xarajatlar

2. O`zini tartibga soluvchi bozor tizimi namaga kafolat beradiq
 - a) Tovar defitsiti bo`lmasligiga
 - b) Tovar ortiqchaligi bo`lmasligiga
 - v) Doimiy va uzoq muddatli tovar defitsitining tez-tez paydo bo`lish imkoniga
 - g) narx mexanizmi xarakati natijasida tovar massasi defitsiti va ortiqaligining tez bartaraf etilishiga
 - d) a) va b) javoblar to`g`ri

3. "In`ektsiya" tushunchasiga nima taalluqliq
 - a) investitsiyalar
 - b) jamg`armalar
 - v) soliqlar
 - g) import
 - d) xamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

4. Makroiqtisodiy ideal bo`lib quyidagilar xisoblanadi
 - a) Nazariyada iqtisodiy tizimning umumiy muvozanat modelini tuzish
 - b) amalda erkin raqobat qonunlari talablariga hamma iste`molchilar va ishlab chiqaruvchilar harakatini moslashtirish
 - v) amalda mukammal raqobat sharoitida resurslardan olinadigan foydani oshirish uslublarini qo`llash
 - g) faqat a) va b) javoblar to`g`ri
 - d) hamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

5. Erkin raqobatning muvozanat iqtisodiy tizimi elementi bo`lgan iste`molchiga qanday talablar qo`yilganq
 - a) bozordagi harakati foydani oshirish uslublarini qo`llashga qaratilgan bo`lishi kerak
 - b) mukammal raqobat sharoitida resurslarning erkin egasi bo`lishi kerak
 - v) uning bozordagi harakati tovarlardan olinadigan manfaatini maksimallashtirishga qaratilgan harakatdan iborat bo`lishi kerak
 - g) o`z mehnatini sotishdan maksimal foyda olishga qaratilgan bo`lishi kerak
 - d) keltirilgan hamma javoblar to`g`ri

6. Erkin raqobatning muvozanat iqtisodiy tizimi elementi bo`lgan firmaga qanday talablar quyilganq
 - a) bozordagi harakati foydani oshirish uslublarini qo`llashga qaratilgan bo`lishi kerak

- b) mukammal raqobat sharoitida resurslarning erkin egasi bo`lishi kerak
- v) uning bozordagi harakati tovarlardan olinadigan manfaatini maksimalashtirishga qaratilgan harakatdan iborat bo`lishi kerak
- g) o`z mehnatini sotishdan maksimal foyda olishga qaratilgan bo`lishi kerak
- d) keltirilgan hamma javoblar to`g`ri

7. Farovonlik deganda nima tushuniladi

- a) sotuvchi bilan xaridor o`rtasidagi tovarni pulga ayirboshlash munosabati
- b) ayirboshlashda ikki har qanday qatnashchining ular sotib olgan tovarlardan olinadigan manfaatlari nisbatining tengligi
- v) ayirboshlash qatnashchilarining optimal strategiyalari
- g) bir tarzdagi optimal iqtisodiy o`rinish
- d) to`g`ri javob berilmagan

8. Mukammal raqobat bozorida o`rnatiladigan va bozorga ta`sir etadigan tashqi faktorlarga bog`liq bo`lgan muvozanat qanday muvozanatq

- a) qisman muvozanat
- b) real muvozanat
- v) umumiy muvozanat
- g) tarmoqlararo muvozanat
- d) to`g`ri javob berilmagan

9. Sey modeli nimani ifodalaydiq

- a) tovarlarning makroiqtisodiy taklifi bilan talabi muvozanatda ekanligini ko`rsatadi
- b) jami talab va jami taklif o`rtasidagi muvozanatning kapital quyilmalar va axolining jamg`armalarini tengligi natijasida kelib chiqishini ko`rsatadi
- v) mamlakatning jami xarajatlari uning milliy daromadiga tengligini ko`rsatadi
- g) a) va b) javoblar to`g`ri
- d) hamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

10. Leont'evning "XARAJAT - ISHLAB CHIQRISH" modelining soddalashtirilgan matematik ifodalanishi qandayq


- a) $AD = AS$
- b) $AE = NI$
- v) $S = I$
- g) $X_i = A_{ij}X_j + Y_i$
- d) $P_iX_i = V_jY_j$

2-MAVZU. JAMI TALAB VA JAMI TAKLIF MUVOZANATI

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1-mashg'ulot. 1-grafikda jami talab va jami taklif egri chiziqlari ko'rsatilgan. AD egri chizig'i chapga siljiydi.

- talab egri chizig'ining chapga siljishning narx darajasiga ta'siri qanday?
- narx umumiy darajasi qanday o'zgaradi?
- talab egri chizig'ini chapga siljishni real YaMM darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? uning hajmi qanchaga o'zgaradi?
- agar iqtisodda unumdorlik 50% ga qisqarsa, bu jami taklif egri chizig'iga qanday ta'sir ko'rsatadi?



1-rasm. Jami talab va jami taklif egri chiziqlari.

2-mashg'ulot. 1-jadvalda jami talab asosiy tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatuvchi narxsiz omillar kiritilgan. Ikkinchi ustunga jami talabning shunga mos qismini, uchinchi ustunda esa uning o'zgarish xarakterini (+)- o'sish, (-)pasayishi ko'rsating.

1- jadval


Omillar	Jami talab tarkibiy qismlari	O'zgarishlar (+), (-).
a) aholi o'sishi	Iste'mol	(+)
b) pul taklifi kamayishi	--	--
c) individual soliqlar oshishi	--	--
d) boshqa mamlakatlarda kutiladigan retsessiya	--	--
e) uy-joy narxlari oshishi	--	--
f) iqtisodda retsessiya kutilishi	--	--

3-mashg'ulot. 2-rasmda jami talab egri chizig'i aks ettirilgan.

a) agar jami taklif egri chizig'i vertikal chiziq bilan ko'rsatilsa va real YaMM 140 mlrd.so'm bo'lsa, muvozanat narx darajasi nimaga teng?

b) agar jami taklif egri chizig'i gorizontaal bo'lsa va narx darajasi 120 bo'lsa, muvozanat YaMM nechaga teng?

c) agar jami taklif funksiyasi $Rq-40Q9$ ko'rinishga ega bo'lsa, unda real YaMM va narx darajasi nimaga teng? M-100, YaMM-140.



2-rasm. Jami talab egri chizig'i.

4-mashg'ulot. 2-jadvalda jami taklifni ifodalovchi ma'lumotlar keltirilgan.

a) Jami taklif egri chizig'ini tuzing.

2- jadval.


Narx darajasi	Real ko'rinishda ishlab chiqarish YaMM
250	2000
225	2000
200	1900
175	1700
150	1400
125	1000
125	500
125	0

3- jadvalda jami talab funksiyasining uch varianti berilgan. Shu variantlar bo'yicha AD jami talab egri chiziqlarini chizing.

Har bir variant uchun YaMM muvozanat hajmi va muvozanat narxlarini aniqlang.

Narx darajasi	Real YaMM (daromadlar bo'yiicha hisoblangan)		
	(1)	(2)	(3)
250	1400	1900	400
225	1500	2000	500
200	1600	2100	600
175	1700	2200	700
150	1800	2300	800
125	1900	2400	900
100	2000	2500	1000

5-mashg'ulot. 3- rasmda olti jami talab va ikki jami taklif egri chiziqlari berilgan.



3-rasm. Jami talab va jami taklif egri chiziklari.

- AD_1 egri chizig'ining AD_2 holatiga ko'chishi real YaMM va narx darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi? AD_3 dan AD_4 va AD_5 dan AD_6 ga ko'chish-chi?
- AD_1 , AD_2 , AD_3 egri chiziqlari o'ngga siljishi jami talab dinamikasiga va narxlar darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- agar AD egri chiziqlari o'ngga siljisa, jami talab qanday o'zgaradi? Bunda jami talab o'zgarishi real YaMM va narx darajasi dinamikasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- AS_1 egri chizig'i AS_2 holatiga ko'chganda, jami taklif qanday o'zgaradi?
- tovar narxlari o'zgaruvchan. AS_1 , egri chizig'ining AS_2 holatiga ko'chishi har bir jami talab darajasida (AD_1 , AD_3 , AD_5) narx real YaMM darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- agar AS_2 egri chizig'i AS_1 holatiga ko'chsa, unda har bir jami talab darajasida (AD_1 , AD_3 , AD_5) (1) jami taklif, (2) narx darajasi va (3) real YaMM hajmi qanday o'zgaradi?

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Jami talab egri chizig'ining o'ngga siljishi nimani aks ettira olmaydi?
- a) ham narx darajasi, ham real YaMM hajmining bir vaqtdagi oshishini
 - b) real YaMM hajmi oshmasdan narx darajasi oshishini
 - c) narx darajasi oshmasdan real YaMM hajmi oshishi
 - d) bir vaqtda narx darajasi oshishi va real YaMM hajmi kamayishini
 - e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri
2. Agar narx darajasi oshsa, ishlab chiqarish pasaysa, unda bu:
- a) jami talab egri chizig'ining o'ngga siljishi bilan bog'liq
 - b) jami talab egri chizig'ining chapga siljishi bilan bog'liq
 - c) jami taklif egri chizig'ining chapga siljishi bilan bog'liq
 - d) jami taklif egri chizig'ining o'ngga siljishi bilan bog'liq
 - e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri
3. Agar jami hajmi to'la bandlik sharoitidagi YaMM darajasidan ko'p bo'lsa, unda iqtisodda
- a) moliyaviy cheklanishlar mavjud
 - b) inflyatsion farq mavjud
 - c) deflyatsion farq mavjud
 - d) byudjet tanqisligi mavjud
 - e) jami talab va jami taklif o'rtasida mavozevat mavjud
4. Agar muvozevat YaMM hajmi uning potentsial darajasidan yuqori bo'lsa, unda:
- a) narx darajasi oshadi
 - b) ishsizlik darajasi oshadi
 - c) jami taklif avtomatik ravishda oshadi
 - d) jami talab avtomatik ravishda oshadi
 - e) deflyatsion farq paydo bo'ladi
5. Jami talab egri chizig'i quyidagilardan qaysi biri o'rtasidagi nisbatni ifodalaydi?
- a) narx darajasi va tovar va xizmatlar xaridiga jami xarajatlar
 - b) narx darajasi va real ko'rinishdagi YaMM
 - c) real ko'rinishdagi ishlab chiqarilgan va iste'mol qilingan YaMM hajmlari
 - d) xaridorlar tan oladigan narx darajasi va ishlab chiqaruvchilarni qondiradigan narx darajasi
 - e) hamma javoblar noto'g'ri
6. Jami taklif o'sishi nimaga olib keladi?
- a) narx darajasi va YaMM real hajmi kamayishiga
 - b) narx oshishini sekinlashtiradi va YaMM real hajmini oshiradi
 - c) narx darajasini va YaMM real hajmini oshiradi
 - d) narx oshishini sekinlashtiradi va real YaMM hajmini tushiradi
 - e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

7. Agar ishlab chiqarilgan real ko'rinisdagi YaMM hajmi uning muvozanat hajmidan kam bo'lsa, unda ishlab chiqaruvchilar:

- a) ishlab chiqarish zapaslarini kamaytiradilar va ishlab chiqarishni kengaytiradilar
- b) ishlab chiqarish zapaslarini oshiradilar va ishlab chiqarishni kengaytiradilar
- c) ishlab chiqarishni zapaslarini ham, ishlab chiqarishni ham qisqartiradilar
- d) ishlab chiqarish zapaslarini ham, ishlab chiqarishni ham oshiradilar
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

8. Jami talab egri chizig'i oshadi, agar:

- a) narx darajasi tushsa
- b) narx darajasi oshsa
- c) ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari oshsa
- d) milliy pul birligi valyuta kursi tushsa
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

9. Agar tadbirkorlikka soliqlar oshsa, unda:

- a) jami talab qisqaradi, jami taklif o'zgarmaydi
- b) jami taklif qisqaradi, jami talab o'zgarmaydi
- c) jami taklif ham, jami talab ham qisqaradi
- d) jami taklif ham, jami talab ham oshadi
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

10. Agar import tovarlarga narxlar o'ssa, unda bu o'sishga sabab:

- a) jami taklifning qisqarishi
- b) jami taklifning oshishi
- c) jami talabning oshishi
- d) hamma javoblar noto'g'ri

3 - MAVZU. ISTE'MOL TALABI NAZARIYASI.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1-mashg'ulot. Oilaning iste'molga har haftalik xarajati 100 so'm +1/2 haftalik ixtiyordagi daromad hajmi ($C=100 \text{ so'm} + 1/2 D_1$).

a) 1- jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha oilaning iste'mol xarajatlarini va har bir daromad darajasida jamg'arma miqdorini hisoblang.

1- jadval

Ixtiyordagi daromad (D_1)	Iste'mol (C)	Jamg'arma (S)	Ixtiyordagi daromad (D_1)	Iste'mol (C)	Jamg'arma (S)
0	--	--	300	--	--
100	--	--	400	--	--
200	--	--	500	--	--

b) 1 Jadval ma'lumotlari asosida iste'mol funksiyasi grafigini tuzing. Bu rasmda 45° li burchak ostida chap burchakdan o'ngga qarab diagonal chiziq o'tkazing. Bu egri chiziqda joylashgan har qanday nuqtada iste'mol ixtiyordagi daromadga teng. Ixtiyordagi daromadning qanday darajalarida iste'mol xarajatlari uning hajmiga teng, undan kam va ko'p, hisoblang.

2-mashg'ulot: Tahmin qilamiz, A mamlakatda 100 oila bor. Oilalarning yarmi 1/2 ga teng bo'lgan iste'molga cheklangan moyilikka ega, ikkinchi yarminiki esa 3/4 ga teng.

a) Agar ixtiyordagi daromad 10000 so'mga oshsa, va uning hamma usuli oilalarning birinchi yarmiga teng bo'lsa, unda iste'molga jami xarajatlar qanchaga oshadi.

b) Agar ixtiyordagi daromadning hamma o'suvi oilalarning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelsa, unda iste'molga jami xarajatlar qanchaga oshadi.

3 mashg'ulot. Iste'mol funksiyasi avvalgi mashg'ulotdagi kabi, ya'ni $C=100 \text{ so'm} + 1/2 D_1$. 2- jadval ma'lumotlari asosida hisoblang.

a) Ixtiyordagi daromadning har bir o'zgarishida iste'mol xarajatlari hajmi o'zgarishini.

b) Iste'molga cheklangan moyillik miqdorini (MRC).

2- jadval.

Ixtiyordagi daromad o'zgarishi (D_1)	Iste'mol xarajatlari o'zgarishi (C)	Iste'molga cheklangan moyillik (MRC)
0 dan 1 gacha (+1)	--	--
399 dan 400 gacha (+1)	--	--
400 dan 401 gacha (+1)	--	--
400 dan 410 gacha (+10)	--	--
410 dan 400 gacha (-10)	--	--
400 dan 399 gacha (-1)	--	--

4-mashg'ulot. 3- jadvalda A mamlakatda ixtiyordagi daromad va iste'mol xarajatlari hajmlari o'rtasidagi nisbatni ifodalovchi ma'lumotlar keltirilgan. (mln. so'm)

3- jadval

Iste'mol xarajatlari	Ixtiyordagi daromad	Iste'mol xarajatlari	Ixtiyordagi daromad
120	100	330	400
200	200	380	500
250	300	420	600

- A mamlakat uchun iste'mol funksiyasini chizmada aks ettiring.
- ixtiyordagi daromad 100 dan 200 gacha, 300 dan 400 gacha, 500 dan 600 gacha oshgan sharoitda iste'molga cheklangan moyilikni hisoblang:
- 4 jadval ma'lumotlaridan foydalanib, jamg'arma funksiyasini chizing.
- 4 jadval ma'lumotlaridan foydalanib, jamg'arma funksiyasini chizing.
- ixtiyordagi daromad 100 dan 200 gacha, 300 dan 400 gacha, 500 dan 600 gacha oshgan sharoitda jamg'armaga cheklangan moyillikni hisoblang.
- iste'molga va jamg'armaga cheklangan moyillik yig'indisini
- punktларidan hisoblar natijalaridan foydalanib, hisoblang.

5-mashg'ulot. Firma 7 investitsion loyihani ko'rib chiqayapti, deb faraz qilamiz. Har bir loyiha bo'yicha kutiladigan foyda normasi to'g'risidagi ma'lumotlar 4 - jadvalda berilgan.

a) agar firma 10% kredit olsa, unda bu loyihalardan qaysi biri foydasiz bo'ladi?

4- jadval

Loyihalar	Kutiladigan foyda normasi, %
A	12
B	8
V	7
G	15
D	25
E	11
J	9

b) Agar kredit uchun protsent stavkasi 13% gacha oshsa, unda qanday loyixalar foydasiz bo'ladi?

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Iste'molga cheklangan moyillik, - ...

- a) jami iste'molning daromadga nisbati
- b) daromad o'zgarishi natijasida iste'mol xarajatlarining o'zgarishi
- c) iste'mol xarajatlari o'suvining ixtiyoridagi daromad birligi o'suviga nisbati
- d) ma'lum daromad miqdorida iste'mol xarajatlari miqdorini ifodalovchi egri chiziq
- e) hamma javoblar noto'g'ri

2. Iste'molga va jamg'armaga cheklangan moyillik o'rtasidagi bog'liqlik nimada ifodalanadi?

- a) ularning yig'indisi 1 ga teng
- b) ular o'rtasidagi nisbat iste'molga o'rtacha moyillikni ifodalaydi
- c) ularning yig'indisi ixtiyoriy daromadga teng
- d) ularning yig'indisi nolga teng
- e) hamma javoblar to'g'ri

3. Agar odamlar o'z daromadining hammasini iste'molga sarflamasa va saflanmagan qiymatni bankka qo'ysa, unda aytish mumkinki, ular:

- a) jamg'aradi, lekin investitsiyalashtirmaydi
- b) investitsiyalashtiradi, lekin jamg'armaydi
- c) jamg'armaydi ham, investitsiyalashtirmaydi ham
- d) ham jamg'aradi, ham investitsiyalashtiradi
- e) jamg'aradi lekin qimmatbaho qog'ozlar sotib olishga ishlatiladigan qismini investitsiyalashtiradi

4. "Individual jamg'armalar" milliy hisoblar tizimida ishlatiladigan termin sifatida nimani bildiradi?

- a) oilaning hamma aktivlari umumiy yig'indisini
- b) ma'lum davrda olingan, lekin iste'molga ishlatilmagan daromadni
- c) ma'lum davrda olingan va qimmatbaho qog'ozlar xaridiga sarflangan yoki bankka qo'yilgan daromadni
- d) oilaning hamma aktivlari umumiy yig'indisi minus uning majburiyatlari
- e) ma'lum davrda olingan va na qimmatbaho qog'ozlar xaridiga, na iste'molga sarflangan va na bankka qo'yilgan daromadni

5. Individual iste'mol funksiyasining "ostonaviy darajasi" nuqtasi (45 egri chiziq bilan kesishish nuqtasi) nimani bildiradi?

- a) jamg'arma daromadga teng
- b) daromad iste'molga teng
- c) jamg'arma iste'molga teng
- d) iste'mol investitsiyalarga teng
- e) iste'molga cheklangan moyillik 1 ga teng

6. Keyns ta'kidlashicha, mamlakatda iste'mol xarajatlari hajmi birinchi navbatda bog'liq:

- a) iste'molchining yashash joyidan
- b) oila a'zolari yoshidan
- c) milliy daromad darajasidan
- d) ixtiyordagi daromad darajasidan
- e) pul taklifi o'suvi sur'atidan

7. Quyidagi munosabatlarning qaysi biri teskari bog'liqlikni ifodalaydi?

- a) iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi munosabat
- b) investitsion xarajatlar va protsent stavkasi darajasi o'rtasidagi munosabat
- c) jamg'armalar va protsent stavkasi darajasi o'rtasidagi munosabat
- d) investitsion xarajatlar va milliy daromad o'rtasidagi munosabat
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

8. Agar ixtiyordagi daromad hajmi kamaysa, unda:

- a) iste'mol xarajatlari ham, jamg'armalar ham o'sadi
- b) iste'mol xarajatlari oshadi, jamg'armalar kamayadi
- c) iste'mol xarajatlari kamayadi, jamg'armalar oshadi
- d) iste'mol xarajatlari ham, jamg'armalar ham kamayadi
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

9. Agar mamlakatda ixtiyordagi daromad oshsa, unda:

- a) ARS va APS oshadi
- b) ARS o'sadi, APS kamayadi
- c) ARS tushadi, APS oshadi
- d) ARS va APS kamayadi
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

10. Quyidagi munosabatlardan qaysi biri to'g'ri bog'liqlikni ifodalaydi?

- a) iste'mol xarajatlari va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi munosabat
- b) jamg'armalar va ixtiyordagi daromad o'rtasidagi munosabat
- c) jamg'armalar va protsent stavkasi o'rtasidagi munosabat
- d) iste'mol xarajatlari va aholi soni o'rtasidagi munosabat
- e) hamma javoblar to'g'ri

4 MAVZU. "DAROMADLAR - XARAJATLAR" MODELIDA TOVAR BOZORLARI MUVOZANATI.


Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1 mashg'ulot. 1- rasmda (A va B grafiklar) potentsial ishlab chiqarish hajmida (1000 mlrd.so`m) jami taklif egri chiziqlari aks ettirilgan.

a) Jami taklif egri chizig'i konfiguratsiyasiga bu grafiklardan qaysi biri klassik va qaysi biri Keynsionistik nuqtai nazarni aks ettiradi.

b) Ikki kontseptsiyadan qaysi biri (Klassik va Keysionistik), jami talabning qisqarishi YaMM hajmiga ta`sir ko`rsatmaydi, lekin umumiy narx darajasining tez o`zgarishiga olib keladi, deb ta`kidlaydi.

2 mashg'ulot. Muvozanat ishlab chiqarishning klassik modeliga mos holda o`rtacha narx darajasini hisoblang. Mamlakatning jami ishlab chiqarishi 500000 birlik, muomaladagi pul miqdori - 1000000 so`m, ularning aylanish tezligi 4 ga teng.



1- rasm.

3 mashg'ulot. Iste`mol funktsiyasi ko`rinishi $S = 100 + 0,9 DI$ (DI ixtiyordagi daromad).

a) berilgan ixtiyordagi daromad miqdorlarida iste`mol xarajatlari va jamg'armalarini hisoblang:

Jadva 1.

Ixtiyordagi daromad (mlrd.so`m)	Iste`mol xarajatlari (C), (mlrd.so`m)	Jamg'armalar (S), (mlrd.so`m)
600		
800		
1000		
1200		
1500		
1600		

b) Iste`molga cheklangan moyillik (MRS) va jamg'armaga cheklangan moyillikni hisoblang (MPS).

v) Xarajatlar mul'tiplikatori (M) ni hisoblang.

4 mashg'ulot. 2-jadvalda yopiq tipdagi iqtisodda iste'mol xarajatlari, jamg'armalar va SMM miqdorini xarakterlovchi ma'lumotlar keltirilgan (so'm).

2 Jadval

CMM hajmi (NNP)	Iste'mol (C)	Jamg'arma(S)
550	520	20
560	526	24
570	532	28
580	538	42
590	544	46
600	550	50
610	556	54
620	562	58
630	568	62

a) SMM hajmi to'la bandlik sharoitida 590 so'm. Investitsiyalar mul'tiplikatori miqdorini aniqlang.

b) Sof rejali investitsiyalar 58 so'm. Nominal va real SMM hajmlari o'rtasidagi farqni aniqlang. Bu farq qanday xarakterga ega (inflyatsion yoki deflyatsion).

v) Sof rejali investitsiyalar 38 so'm. To'la va noto'la bandlik sharoitlarida erishilgan real **SMM** hajmlaridagi farqni aniqlang. Bu farq qanday xarakterga ega (inflyatsion yoki deflyatsion).

5 mashg'ulot. a) 3- jadvalni quyidagi ma'lumotlar asosida to'ldiring (mlrd.so'm): $S = 200 + 0,75 DI$, $I = 200$, $G = 200$, Eksport-125, Import = 25, Soliqlar = 200.

b) Daromadning qanday darajasida iqtisod makroiqtisodiy muvozanatga erishadiq

v) Investitsiyalar mul'tiplikatori nimaga tengq

g) Agar investitsiyalar hajmi 150 mlrd. so'mgacha tushsa, iqtisod qanday daromad hajmida yangi muvozanatga erishadiq

6 mashg'ulot. 4-jadvalda doimiy narx darajasida va davlat aralashuvi bo'lmagan sharoitda amal qiladigan yopiq iqtisodni xarakterlaydigan ma'lumotlar (so'm) berilgan.

a) quyida turli foiz stavkalarida rejali sof investitsiyalar hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

Foiz stavka (%)	10	9	8	7	6	5	4	3
Rejali investitsiya (so'm)	0	7	13	18	22	25	27	28

Faraz qilamiz foiz stavka 6 % . Jami xarajatlarni (C+I) va haqiqiy investitsiyalarning rejadan farqini aniqlab, jadvaldagi to'ldirilmagan ustunlarni to'ldiring.

b) Bu foiz stavka darajasi va sof investitsiyalar hajmida (6% va 22 so'm) quyidagilarni hisoblang:

- real SMM muvozanat darajasi.
- iste`molga va jamg`armaga cheklangan moyillikni.
- investitsiyalar mul'tiplikatori.

4. Jadval

Real CMM NNP	Iste`mol xarajat-lari (C)	Jamxar--malar (C)	Rejali investitsiyalar (I)	Jami xarajatlar (C+I)	Haqiqiy investitsiyalarning rejali investitsiyalardan farqi (C=I)
1300	1290	10	22	1312	-12
1310	1298	12	22	1320	-10
1320	1306	14			
1330	1314	16			
1340	1322	18			
1350	1330	20			
1360	1338	22			
1370	1346	24			
1380	1354	26			
1390	1362	28	22	1384	+6
1400	1370	30	22	1392	+8

v) Agar foiz stavka 6 % dan 5 % ga tushsa, rejali investitsiyalar va real SMM muvozanat hajmlari qanday o`zgaradiq

7 mashg`ulot. Berilgan ma`lumotlar iste`mol funksiyasini xarakterlaydi (mlrd.so`m):

YaMM	0	150	170	190	210	230
Iste`mol xarajatlari	112	126	140	154	168	182

Aniqlang:

a) Investitsiyalar miqdori 60 mlrd. so`m, davlat xarajatlari 0 ga teng bo`lgan sharoitdagi muvozanat hajmini.

b) Agar investitsiyalar miqdori 30 mlrd. so`mgacha tushsa muvozanat YaMM hajmi qanday o`zgaradi?

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Agar odamlar kamroq tejamkor bo`lishsa, unda:

a) kreditga talab oshib boradi

b) kredit narxi tushadi

v) jamg`arma egri chizig`i chapga siljiydi

g) protsent stavkaning har bir darajasida jamg`armalar miqdori o`sib boradi

d) hamma javoblar noto`g`ri

2. To`la birlik va hamma resurslardan to`la foydalanishdagi ishlab chiqarish darajasi pul massasi va narx darajasiga bog`liq emasligi to`g`risidagi xoya tegishli:
- keynsianistlar nazariyasiga
 - marksistlar nazariyasiga
 - Sey qonuniga
 - pulning miqdoriy nazariyasiga
 - hamma javoblar to`g`ri
3. Klassik makroiqtisodiy nazariyaning qanday kontseptsiyalarini Keynes tanqid qilgan
- Sey qonunini
 - Pulning miqdoriy nazariyasini
 - Iqtisodning bozoriy o`zini tartibga solish nazariyasini
 - hamma javoblar to`g`ri
 - faqat a) va b) javoblar to`g`ri
4. Keynes nazariyasiga ko`ra jamg`armalar investitsiyalardan ko`p bo`lishi mumkin, agar:
- protsent stavkasi darajasi oshsa
 - iqtisodda uzoq vaqt ishsizlik bo`lsa
 - Sey qonuni amal qilmasa
 - iqtisodda me`yordan ko`p ishlab chiqarish va ishsizlik mumkin bo`lmasa
 - b) va v) javoblar to`g`ri
5. Keynsianistlarning iste`mol xarajatlari kontseptsiyasi bo`yicha:
- iste`mol xarajatlari ixtiyordagi daromadi bevosita aloqador
 - agar ixtiyordagi daromad oshsa, iste`mol xarajatlari kamayadi
 - agar ixtiyordagi daromad oshsa, unda uning iste`molga ketadigan qismi tushadi
 - yuqoridagi hamma javoblar to`g`ri
 - faqat a) va b) javoblar to`g`ri
6. Ixtiyordagi daromad miqdori o`zgarishi bilan iste`mol xarajatlari hajmi ham, lekin faqat kam darajada o`zgarishidagi xoya tegishli:
- keynsionistlarning investitsiya nazariyasiga
 - keynsionistlarning bandlik nazariyasiga
 - klassik makroiqtisod nazariyasiga
 - pulning miqdoriy nazariyasiga
 - keynsionistlarning iste`mol nazariyasiga
7. Keynes nazariyasiga ko`ra, ishlab chiqarish darajasi jami talab miqdori bilan aniqlanadi. Bu nimani bildiradiq
- daromad qilish shu daromadga talab yaratadi
 - Pulga talab tadbirkorlarni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishga majbur qiladi

v) tadbirkorlar to`la bandlik darajasigacha ishlab chiqarishni kengaytirishga harakat qiladi

g) tadbirkorlar ishlab chiqarishga qaror qilgan mahsulot hajmi unga namoyon etilgan talab bilan aniqlanadi

d) faqat a) va v) javoblar to`g`ri

8. Keynsning muvozanat modeli bo`yicha iqtisod muvozanatda bo`ladi, agar:

a) iste`mol xarajatlari minus jamg`armalar investitsiyalarga teng bo`lsa

b) pul taklifi dinamikasi ma`lum davr mobaynida doimiy bo`lsa

v) planli iste`mol xarajatlari plus investitsiyalar "in`ektsiyalarga" teng bo`lsa

g) davlat byudjeti balanslashtirilgan bo`lsa

d) jami taklif jami talabga teng bo`lsa

9. Keynsning modelida, agar jami taklif jami talabga teng bo`lsa, unda:

a) Zaxiralar kamaytiriladi va tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytirishni boshlaydilap

b) zaxiralar o`zgarmaydi, lekin tadbirkorlar ishlab chiqarishni kengaytiradi

v) zaxiralar o`sadi, tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartira boshlaydi

g) zahiralar hajmi va ishlab chiqarish darajasi o`zgarmaydi

d) zaxiralar o`zgarmaydi, lekin tadbirkorlar ishlab chiqarishni qisqartiradi

10. Agar iqtisodda ishlab chiqarilgan va sotilgan SMM teng bo`lsa, unda:

a) jami talab jami taklifga teng

b) jamg`armalar investitsiyalarga teng

v) iqtisodda to`la bandlik va barqaror narxlar sharoitida

g) yuqoridagi hamma javoblar to`g`ri

d) faqat a) va b) javoblar to`g`ri

11. Mamlakatning eksporti oshishi:

a) jami talabni oshiradi, lekin milliy daromadni kamaytiradi

b) jami talabni kamaytiradi va milliy daromadni oshiradi

v) sof eksportni kamaytiradi

g) jami talabni va milliy daromadni oshiradi

d) faqat v) va g) javoblar to`g`ri

12. "Jami talab - jami taklif" modelida narx darajasi o`shishi nimaga olib keladiq

a) MRSning o`shishiga

b) mul'tiplikatorning daromadga ta`sirining oshishiga

v) mul'tiplikatorning daromadga ta`sirini kamayishiga

g) mul'tiplikatorning daromadga ta`siri o`zgarmaydi

d) hamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

13. Keynes modelida jami xarajatlar o`shishi jami talab egri chizig`i ni:
- a) jami xarajatlar o`shishi miqdoriga o`ngga siljitadi
 - b) mul'tiplikatorga ko`paytirilgan jami xarajatlar o`shish miqdoriga qarab o`ngga siljiydi
 - v) mul'tiplikatorga ko`paytirilgan jami xarajatlar o`shish miqdoriga chapga siljiydi
 - g) faqat a) va b) javoblar to`g`ri
 - d) hamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

14. Keynesning makroiqtisodiy muvozanat oddiy modelida mul'tiplikator nimani bildiradiq

- a) narxlar oshganda iste`mol xarajatlariga mul'tiplikativ ta`sirni
- b) investitsiyalarning o`shishida daromad qancha o`shishini
- v) jamg`armalar va investitsiyalar tengligini
- g) iste`mol bilan daromad bog`liqligini
- d) faqat b) va v) javoblar to`g`ri

15. Agar iste`molga cheklangan moyillik 0,3 bo`lsa, mul'tiplikator nechaga tengq

- a) 3
- b) 30
- v) 70
- g) 70
- d) hisoblash uchun ma`lumotlar etarli emas

16. Davlat xarajatlarining, masalan 10 mlrd. so`m, oshishidagi mul'tiplikator samarasi va shu miqdorda individual soliqlarning kamayishi o`rtasida katta bo`lmagan, lekin mohiyatli farq bor. U nimadan kelib chiqadiq

- a) Davlat xarajatlari ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadni ko`paytirib, iste`molga xarajatlarni oshiradi
- b) soliqlarni 10 mlrd. so`mga kamaytirish davlat byudjetiga davlat xarajatlarini shu miqdorga oshirishra nisbatan ko`proq ta`sir ko`rsatadi
- v) soliqlarni pasaytirish iste`mol daromadlari va xarajatlariga bevosita ta`sir ko`rsatadi, davlat xarajatlarining oshishi esa bilvosita ta`sir ko`rsatadi
- g) individual soliqlarni 10 mlrd. so`mga kamaytirish shu miqdorga iste`mol xarajatlarini oshirishga olib kelmaydi, o`sgan daromad qisman jamxariladi
- d) hamma yuqoridagi javoblar noto`g`ri

17. Iqtisod muvozanat holatda. Agar davlat o`z xaridlarini 2 mlrd. so`mga oshirib, soliqlarni o`zgartirmasa, mavozanat YaMM qanday o`zgaradiq Iste`molga cheklangan moyillik 0,75 importga cheklangan moyillik 0,25.

- a) 4 mlrd. so`mga kamayadi
- b) 2 mlrd. so`mga o`sadi
- v) 6 mlrd. so`mga o`sadi
- g) 8 mlrd. so`mga o`sadi
- d) 4 mlrd. so`mga o`sadi

5-MAVZU. PUL BOZORI.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1-mashg'ulot. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

1-jadval.

- a) M1 miqdorini
- b) M2 miqdorini
- c) M3 miqdorini

	Mrld.so'm
Katta bo'lmagan muddatli omonatlar	1630
Yirik muddatli omonat	645
Chekli omonatlar	448
Cheksiz jamg'arma omonatlar	300
Naqd pullar	170

2-mashgulot.

- a) faraz qilamiz, bitim uchun mo'ljallangan har bir so'm 1 yilda to'rt marta aylanadi va oxirgi tayyor tovar va xizmatlar xaridiga yo'naltiriladi. Nominal YaMM hajmi 2000 mlrd.so'm. Pulga talabning miqdorini aniqlang.
- b) jadvalda spekulyativ pulga talab miqdori turli % stavkalarida berilgan. a) punktda topilgan javobdan foydalanib, pulga umumiy talab hajmini jadvalda ko'rsating.
- c) pul taklifi 580 mlrd. so'm. Muvozanat % stavkani aniqlang.
- d) agar pul taklifi 600 mlrd. so'mgacha oshsa; 540 mlrd.so'mgacha kamaysa, muvozanat % stavka miqdorini aniqlang.

2. Jadval.

Protsent stavka (%)	Pulga talab hajmi (mlrd.so'm)	
	Spekulyativ talab	Umumiy
16	20	
14	40	
12	60	
10	80	
8	100	
6	120	
4	140	

e) agar nominal YaMM hajmi 80 mlrd. so'mga oshsa; 120 mlrd. so'mga kamaysa % stavkaning har bir darajasida pulga umumiy talab va muvozanat foiz stavka qanday o'zgaradi, aniqlang.

3-mashg'ulot. Faraz qilamiz foiz stavka va pulga talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlik quyidagicha ifodalanadi:

$$i = 20 - 2M$$

bunda

i - % stavkasi,

M - pul miqdori (trln.so'm)

- a) grafik ko'rinishda berilgan bu funktsiya nimani ko'rsatadi?

- b) agar pulga talab miqdori 5 trln. so'm bo'lsa, % stavka qanday bo'ladi?
 c) faraz qilamiz, YaMM hajmi oshdi. i va m o'rtasidagi bog'liqlik ilgorigicha qoladimi? Yo'q bo'lsa, unda qanday yo'nalishda o'zgaradi?

4-mashg'ulot. 3- jadvalda A mamlakatning nominal YaMM hajmi va pul massasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

3-jadval.

Yil	M_1	M_2	YaMM nominal hajmi
1967	187,4	350	816,4
1969	209,0	392,5	963,9
1971	234,0	471,9	1102,7
1973	270,5	571,4	1359,3
1975	295,2	664,7	1598,4
1977	338,5	809,5	1990,5

Shu davr ichida M_1 va M_2 asosida hisoblangan pul muomalasi tezligini taqqoslang. Qaysi holatda pul muomalasi tezligi barqarorroq.

5-mashg'ulot.

4-jadval.

Protsent stavka (%)	Obligatsiya narxi (so'm)	Protsent stavka (%)	Obligatsiya narxi (so'm)
1	-	-	2000
2	-	10	-
-	2500	12,5	-

Obligatsiya bo'yicha yiliga 100 mlrd. so'm foiz to'lanadi.
 4 jadvalda turli foiz stavka darajalarida obligatsiya narxlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Jadvalni etishmaydigan ko'rsatkichlar bilan to'ldiring.

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Pul va "qariyb pul" o'rtasidagi farq nimadan iborat?
- pulni "qariyb pul"dan farqli o'laroq bevosita ravishda sarflash mumkin
 - "qariyb pullar" banklardagi depozit qo'yilmalarni o'z ichiga olmaydi
 - pul, "qariyb pul"ga qaraganda tezroq aylanadi
 - "qariyb pullar" puldan farqlanib, mayda qilinmaydigan qog'oz puldir
 - "qariyb pullar" pulga sotiladigan barcha tovarlarni o'z ichiga oladi
2. "Pulga bo'lgan talab" tushunchasi quyidagini bildiradi:
- qimmatbaho qog'ozlarni zarurat tug'ilganda o'zgarmas narxlarda sotish maqsadida saqlash
 - tadbirkorlarga ma'lum foiz qo'yilmalari sharoitida kredit berishga tayyor pul miqdori
 - daromadning bir qismini har ehtimolga qarshi saqlab qolish istagi
 - aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talabning o'zi
 - bitimlar uchun pulga talab va aktivlar tomonidan pulga talabning o'zi

3. Agarda indeks shaklida ifodalangan narxlar darajasini P deb va pul qiymatini D deb belgilasak, unda:

- a) $P = D - 1$
- b) $D = 1 : P$
- c) $1 = D : P$
- d) $D = P - 1$
- e) $D = 1 - P$

4. Agar YaMM nominal hajmi 4000 mlrd. so'm bo'lsa, bitimlar uchun pulga talab 800 mlrd. so'mga teng bo'lsa, u holda:

- a) aktilar tomonidan pulga talab 3200 mlrd. so'm bo'ladi
- b) pulga bo'lgan umumiy talab 4800 mlrd. so'm bo'ladi
- c) har bir so'm yilida o'rtacha 5 marta aylanadi
- d) pul taklifi hajmini oshirish kerak.
- e) aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab 4800 mlrd. so'mni tashkil etadi.

5. Pul quyidagi vazifalarni bajaradi:

- a) muomala vositasi
- b) jamg'arish vositasi
- c) qiymat o'lchovi
- d) oldin berilgan barcha javoblar to'g'ri
- e) hamma javoblar noto'g'ri

6. Quyidagilarning qaysi biri "qariyb pulga" kirmaydi:

- a) chekli bo'lmagan jamg'arma omonatlar
- b) katta miqdordagi muddatli omonatlar
- c) kredit kartochkalari
- d) qisqa muddatli davlat qimmatbaho qog'ozlari
- e) kichik miqdordagi muddatli omonatlar

7. Savdo-sotiq bitimi uchun kerak bo'lgan pulga talab quyidagi ravishda o'zgaradi:

- a) foiz stavkasi oshishi bilan o'sadi
- b) foiz qo'yilmasi pasayishi bilan o'sadi
- c) YaMM nominal hajmining kamayishi bilan pasayadi
- d) YaMM nominal hajmi oshishi bilan pasayadi
- e) oldin berilgan barcha javoblar noto'g'ri

8. Agarda bitimlar uchun pullar yiliga o'rtacha 5 marta aylansa, unda ayirboshlash uchun muhim bo'lgan pul miqdori:

- a) YaMM nominal hajmidan 5 marta ko'p
- b) YaMMning 2 foizini tashkil qiladi
- c) quyidagi nisbatga teng: $5\% / \text{YaMM nominal hajmi}$
- d) quyidagi nisbatga teng: $20\% / \text{YaMM nominal hajmi}$
- e) quyidagi nisbatga teng: $20\% / 5$

9. Agarda YaMMning nominal hajmi kamaysa, unda:

- a) bitimlar uchun pulga talab va pulga umumiy talab o'sadi
- b) bitimlar uchun pulga talab va pulga umumiy talab kamayadi
- c) bitimlar uchun pulga talab o'sadi, pulga umumiy talab kamayadi
- d) bitimlar uchun pulga talab kamayadi, pulga umumiy talab o'sadi
- e) bitimlar uchun pulga talab va umumiy talab o'zgarishsiz qoladi

10. M1 tarkibiga kiradi

- a) metall va qog'oz naqd pullar va chekli omonatlar
- b) metall va qog'oz naqd pullar va muddali omonatlar
- c) metall va qog'oz naqd pullar va hamma bank depozitlari
- d) hamma pullar va "qariyb" pullar
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri

6- MAVZU. IKKI YOQLAMA MUVOZANAT.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1 mashg'ulot. 1-jadvalda iqtisodiy tizimda foiz stavkasi, real pul qoldiqlariga talab, pul massasi miqdori va investitsiyalarga jami talab to'g'risidagi ma'lumotlar berilgan.

1 jadval.

Pul massasi hajmi, mlrd. so'm	Foiz stavkasi, %	Real pul qoldiqlari, mlrd. so'm.	Investitsiyaga talab, mlrd. so'm.
220	20	10	5
220	18	40	10
220	16	70	15
220	14	100	20
220	12	130	25
220	10	160	30
220	8	190	35
220	6	220	40
220	4	250	45
220	2	280	50

a) Grafikda pul qoldiqlari egri chizig'i ni chizing. Vertikal o'qni «foiz stavkasi», gorizontal o'qni «real pul qoldiqlari» deb, talab grafigini esa L bilan belgilang.

b) (Musbat/Manfiy) _____ pul qoldiqlari va foiz stavkasi o'rtasidagi bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, qanchalik foiz stavkasi past bo'lsa, shunchalik (yuqori/past) _____ pulni saqlash harajatlari. Shuning uchun uy ho'jaliklari qo'lda ko'roq pul qoldiqlarini saqlashadi.

v) Shu grafikda pul taklifi egri chizig'i ni chizing va uni MS0 bilan belgilang. Bu egri chiziq (vertikal/gorizontal) _____ chiziq va pul taklifi foiz stavkasidan (bog'liq / bog'liqmasligini) ko'rsatadi.

g) Pul bozori muvozanatda bo'lganda foiz stavkasi va real pul qoldiqlari mos ravishda _____ % va _____ mlrd. so'mga teng.

d) Faraz qilamiz, markaziy bank ochiq bozorda qimmatli qoxozlar sotdi va pul massasini 160 mlrd. so'mgacha pasaytirdi. Grafikda bu yangi egri chiziqni chizing va uni MS1 bilan belgilang. Agar pul massasi hajmi boshqa shartlar o'zgarmasdan qisqarsa, unda foiz stavkasi (oshadi/tushadi) _____, uy ho'jaliklari qo'lidagi real pul qoldiqlari esa (oshadi/kamayadi). Uy ho'jaliklari uchun pul saqlash alternativ harajatlari (oshadi/tushadi) _____, chunki ular o'zida kam pul saqlashadi.

2 mashg'ulot. A) 2- jadval va 1 mashg'ulot ma'lumotlaridan foydalanib investitsiyalarga talab egri chizig'i ni chizing. Vertikal o'qni «foiz stavkasi», gorizontal o'qni «investitsiyalar» deb, talab grafigini esa I bilan belgilang.

B) Pul massasi hajmi 220 mlrd. so'm bo'lganda foiz stavkasi _____%, shuning uchun rejalashtiradigan investicion harajatlar _____ mlrd. so'mga teng (1 mashg'ulot). Bu foiz stavkasida ko'proq investicion loyihalarni amalga oshirish (qulay/noqulay).

V) Agar pul massasi kamaysa (1 mashg'ulotdagi kabi), foiz stavkasi (oshadi/kamayadi)_____, shuning uchun investicion harajatlar (ko'p/kam) _____. Agar foiz stavkasi 10% gacha ohsa, investitsiya harajatlarning yangi miqdori _____ mlrd. so'mga teng, shuning uchun ba'zi investicion loyihalar amalga oshirilmaydi.

3 mashg'ulot. 3-jadvalda jami daromadlar, iste'mol va jamg'armalar to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Narxlar belgilangan deb hisoblanadi, pul bozori ma'lumotlari 2- jadvalda berilgan.

A) 2- jadvalda investicion talab va pul massasi 220 mlrd. so'm bo'lgandagi real pul qoldiqlariga talab grafigi ma'lumotlari berilgan. 1 mashg'ulotda siz muvozanat foiz stavkasini, 2 mashg'ulotda (b) esa bu foiz stavkasida investicion harajatlarni aniqladingiz. Pul massasi

220 mlrd. so'm bo'lgandagi investicion harajatlarni (mlrd. so'm) hisoblang va 3- jadvalga kiriting. So'ng, har bir daromad darajasida jami talabni (mlrd. so'm) aniqlang va uni ham jadvalga kiriting.

2-jadval.

Jami daromadlar (mlrd. so'm)	Iste'mol (mlrd. so'm)	Investitsiyalar (mlrd. so'm)	Jamg'armalar (mlrd. so'm)	Jami talab (mlrd. so'm)
200	180	-	20	-
250	225	-	25	-
300	270	-	30	-
350	315	-	35	-
400	360	-	40	-
450	405	-	45	-
500	450	-	50	-
550	495	-	55	-
600	540	-	60	-
650	585	-	65	-

b) Iste'mol C va iste'mol plyus investitsiya C+I grafiklarini chizing. Vertikal o'qni «jami talab» (mlrd. so'm), gorizontal o'qni «daromadlar» (mlrd. so'm) sifatida belgilang. Grafikni chizishda 45° li chiziqni chizishni unutmang.

v) Muvozanat daromad _____ mlrd. so'mga teng. Bu nuqtada jamg'armalar _____ teng.

g) Faraz qilamiz, Markaziy bank qisqarish pul siyosatini olib boradi va pul massasi hajmini 160 mlrd. so'mgacha kamaytiradi. 1 (e) va 2 (b) mashg'ulotlarda olingan natijalarga _____ asosan foiz stavkasi (oshadi/kamayadi) _____ to _____% gacha, buning natijasida investicion harajatlar (oshadi/kamayadi) _____ to _____ mlrd. so'mgacha.

d) Pul massasi qisqarishi natijasida kelib chiqqan yangi investitsiya darajasidan (mlrd. so'm) foydalanib 7.6. jadvalni to'ldiring, investitsiya va jami talab (mlrd. so'm) bo'yicha yangi ma'lumotlarni hisoblang.

e) Jami investitsiyalar _____ mlrd. so'mgacha qisqarganiga qaramay, pul massasi qisqarishi tufayli jami daromadlar miqdori (oshadi/kamayadi) _____ to _____ mlrd. so'mgacha. _____ stavkasining oshishi – bu jami talab va daromadlar darajasini kamaytirish mehanizmi.

j) 2 mashg'ulot (b) da tuzilgan grafikka sxematik ravishda yangi jami talab egri chizig'i ni kiriting va uni C+I bilan belgilang.

3-jadval.

Jami daromadlar (mlrd. so'm)	Iste'mol (mlrd. so'm)	Investitsiyalar (mlrd. so'm)	Jami talab (mlrd. so'm)
200	180	-	-
250	225	-	-
300	270	-	-
350	315	-	-
400	360	-	-
450	405	-	-
500	450	-	-
550	495	-	-
600	540	-	-
650	585	-	-

4 mashg'ulot. Faraz qilamiz, hukumat raxbatlantiruvchi fiskal siyosat olib borib, soliqlarni kamaytiradi va davlat harajatlarini oshiradi, lekin pul massasi hajmi o'zgarmaydi. Quyida hukumatning bu tadbiri ostida yuz berishi mumkin bo'lgan ba'zi bir holatlar keltirilgan. Bu holatlar bog'liqligiga va olingan bilimlarga asoslanib bu holatlarni (a-z) sodir bo'lish ketma – ketligida joylashtiring.

- _____ Muvozanat foiz stavkasi oshadi.
- _____ Jami daromadlar, bandlik darajasi va davlat harajatlari oshadi.
- _____ Hukumat soliqlarni kamaytiradi va davlat harajatlarini oshiradi.
- _____ Real pul qoldiqlariga talab oshadi.
- _____ Rejalashtirilgan investitsiyalar hajmi kamayadi.
- _____ Real daromadlar, bandlik va ishlab chiqarish o'sadi.

- j) _____ Fiskal siyosatning raxbatlantirish samarasi pasaytiriladi.
- z) _____ Jami talab tushadi.
- i) _____ Bunday ketma – ketlik shuni ko'rsatadiki, agar pul massasi o'zgarmasa, raxbatlantiruvchi fiskal siyosat xususiy investitsiyalarni _____ olib keladi.

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. Investitsiyalarga talab egri chizig'i so'nib borganda, quyida keltirilganlardan qaysi biri o'zgaradi:
 - a) texnologiya holati;
 - b) foiz stavkasi;
 - v) ish haqi;
 - g) mahsulotga kelajakdagi talabni kutish.

2. Pul massasi hajmi o'sishi va doimiy narx darajasida jami talabning oshish mexanizmi quyidagidan iborat bo'ladi:
 - a) pul massasi oshishi → real qoldiqlarning kamayishi → foiz stavkasi oshishi → xususiy investicion harajatlarning qisqarishi → jami daromadlarning va ishlab chiqarishning oshishi;
 - b) pul massasi oshishi → real qoldiqlarning oshishi → foiz stavkasi kamayishi → xususiy investicion harajatlarning qisqarishi → jami daromadlarning va ishlab chiqarishning oshishi;
 - v) pul massasi oshishi → real qoldiqlarning kamayishi → foiz stavkasi kamayishi → xususiy investicion harajatlarning oshishi → jami daromadlarning va ishlab chiqarishning oshishi;
 - g) pul massasi oshishi → real qoldiqlarning oshishi → foiz stavkasi kamayishi → xususiy investicion harajatlarning oshishi → jami daromadlarning va ishlab chiqarishning oshishi.

3. Investitsiyalarni to'liq siqib chiqarish uchun nima zarur:
 - a) jami daromadlar darajasi asosan doimiy bo'lib qolishi;
 - b) narxlar oshishi natijasida real qoldiqlarning qisqarishi yuz berishi;
 - v) foiz stavkasi oshishi;
 - g) investitsiyalarga talab qisqarishi davlat harajatlari oshishiga teng bo'lishi.

4. Tovar bozori va pul bozori o'zaro harakati yuz berganda, pul massasi hajmi o'zgarmaganligi bilan olib boriladigan raxbatlantiruvchi fiskal siyosat:
 - a) jami ishlab chiqarishning yangi muvozanat hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi;
 - b) real qoldiqlarga talab darajasining pasayishiga olib keladi;
 - v) foiz stavkasining oshishini va investitsiyalarning qisqarishi keltiradi;
 - g) real pul qoldiqlari taklifining pasayishiga olib keladi.

5. Agar raxbatlantiruvchi pul va fiskal siyosat olib borilsa, unda nima kutiladi:
a) iqtisodiy tushkunlik va jami daromadlarning va ishlab chiqarishning kamayishi;
b) bandlik darajasining va mahsulot ishlab chiqarishning oshishi xususi investitsiyalarning qisqarishi bilan to'htatiladi;
v) umumiy samara sezilarlisiz bo'ladi, chunki bir turdagi ekspansiya boshqasini qoplaydi;
g) ishlab chiqarishning, bandlik va daromadlarning oshishi, hamda farovonlikning yuzaga kelishi.

6. Pul mehanizmi amal qilishni boshlaydi, qachonki Markaziy bank boshqa sharoitlar o'zgarmagan holda pul massasini oshiradi, uy ho'jaliklari va firmalar esa:

- a) pul qoldiqlarini oshiradi, bu esa foiz stavkasining oshishiga olib keladi;
- b) pul qoldiqlarini oshiradi, bu esa foiz stavkasining pasayishiga olib keladi;
- v) pul qoldiqlarini qisqartiradi, bu esa foiz stavkasining oshishiga olib keladi;
- g) pul qoldiqlarini qisqartiradi, bu esa foiz stavkasining pasayishiga olib keladi.

7. Faraz qilamiz, nominal pul massasi 10% yiliga o'sadi, lekin real pul massasi o'sish sur'atlari nominal pul massasi o'sish sur'atlaridan yuqori. Unda quyidagicha hulosa chiqarish mumkin:

- a) narxlar umumiy darajasi pasayadi;
- b) narxlar umumiy darajasi nominal pul massasi o'sishi sur'atida oshadi;
- v) narxlar umumiy darajasi o'zgarmaydi;
- g) jami talab har qanday narx darajasida pasayadi.

8. Tovar bozori muvozanat tenglamasidagi egzogen ko'rsatkichlar qaysilar:

- a) NT, GP, Q, I, C;
- b) NT, MT, C, S, I;
- v) C, S, NT, MT, GP;
- g) C, NT, MT, I, GP.

9. Pul bozori muvozanat tenglamasidagi ekzogen o'zgaruvchilar qaysilar:

- a) r, MD, MS;
- b) r, P, I;
- v) MS, MD, P;
- g) MS, MD, I.

10. Quyidagilardan qaysi biri IS egri chiziqqa taaluqli emas:

- a) IS dagi har bir nuqta tovar bozorida muvozanat o'rnatilgandagi foiz stavkasi va milliy ishlab chiqarish hajmi kombinatsiyalarini ifodalaydi;
- b) IS egri chiziqqa mos bo'lmagan har qanday r va Q nisbatlari tovar bozorida nomuvozanatlikdan dalolat beradi;
- v) IS egri chiziq so'nib boruvchi harakterga ega;
- g) javoblarning hammasi to'g'ri.

11. Quyidagilardan qaysi biri LM egri chiziqqa taaluqli:

- a) LM egri chiziq pul bozorida o'zgarishlarning tovar bozoriga ta'sirini ifodalaydi;
- b) LM egri chiziqdagi har bir nuqta pul bozorida muvozanat o'rnatiladigan Q va r nisbatlarini aks ettiradi;
- v) LM egri chiziq «o'sish» harakteriga ega;
- g) faqat b) va v) to'g'ri.

12. LM egri chiziq chapga siljiydi:

- a) MD, MS va P o'sganda;
- b) MD, MS va P pasayganda;
- v) MD va MS o'sganda, P pasayganda;
- g) MD va P o'sganda, MS pasayganda;

13. LM egri chiziq o'ngga siljiganda Q va r:

- a) Q o'sadi, r pasayadi;
- b) Q va r o'sadi;
- v) Q va r pasayadi;
- g) Q pasayadi, r o'sadi.

14. IS egri chiziq o'ngga siljiydi:

- a) I, C, GP pasayganda, NT, MT o'sganda;
- b) I, C, GP va NT, MT o'sganda;
- v) I, C, GP o'sganda, NT, MT pasayganda;
- g) I, C, GP va NT, MT pasayganda.


15. IS egri chiziq chapga siljiganda Q va r:

- a) Q va r o'sadi;
- b) Q o'sadi, r pasayadi;
- v) Q va r pasayadi;
- g) Q pasayadi, r o'sadi.

7 - MAVZU. MAKRODARAJADA UMUMIY MUVOZANAT.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1 mashg'ulot. 1-rasmda makroiqtisodiy muvozanatning klassik holati keltirilgan. Muvozanat narx P_e va muvozanat ishlab chiqarish Q_e darajasida tovar, mehnat va qisqa muddatli kapital bozorlari muvozanatda.



1-rasm. Makroiqtisodiy muvozanat.

Quyida jami taklif AS yoki jami talab AD egri chiziqlariga ta'sir etishi mumkin bo'lgan aniq holatlar keltirilgan. Bu holatlar egri chiziqlarni siljitishi mumkin bo'lsa ham, klassik modelda uzoq muddatda doimo to'la bandlik ko'zda tutilishini unutmag. Sizing vazifangiz har bir keltirilgan holat jami ishlab chiqarish hajmiga Q_e , jami taklifga AS , jami talabga AD , va narx darajasiga P ko'zda tutilgan jarayon tugagandan keyin qanday ta'sir etishini aniqlashdir. Oshishni yuqoriga yo'naltirilgan yoy bilan, kamayishni pastga yo'naltirilgan yoy bilan, o'zgarish bo'lmasa 0 bilan ko'rsating. Agar o'zgarishlarni aniqlash imkoni bo'lmasa savol belgisini qo'ying.

	AD	AS	P_e	Q_e
a) Hukumat nominal pul massasini kamaytiradi.				
b) Hukumat mudofaaga harajatlarni 1,5 mlrd so'mga oshiradi.				
v) Hukumat jismoniy shahlar daromadidan soliqni kamaytiradi.				
g) Narx darajasi kamayadi				
d) Hukumat nominal pul massasini oshiradi.				
e) Mehnat unumdorligi tushadi.				
j) Hukumat soliq stavkasi oshiradi, natijada jami talab va odamlarning ish haqining bunday darajasida mehnatga intilishi pasayadi.				

2 mashg'ulot. Quyida makroiqtisodiy muvozanatga pul va fiskal siyosatning o'zgarishlari ta'siri to'g'risida sakkiz tasdiqlar keltirilgan. Ularning har biri qaysi modelga - *keynsionistik yoki klassik* – taaluqli ekanligini ko'rsating.

a) haqiqiy mahsulot ishlab chiqarish potencial ishlab chiqarishdan kam bo'lganda, nominal pul massasi oshishi narx darajasini oshirmasdan, jami talabning va ishlab chiqarishning oshishiga olib keladi. _____.

b) uzoq muddatli davrda davlat harajatlarning oshishi bozordan xususiy investitsiyalarni shu miqdorda siqib chiqaradi, shuning uchun mahsulot ishlab chiqarish oshmaydi. _____.

v) jami mahsulot ishlab chiqarish darajasi jami taklif darajasi bilan aniqlanadi. _____.

g) davlat harajatlarning oshishi bozordan xususiy investitsiyalarni siqib chiqarishi mumkin, lekin daromadlar darajasi va mahsulot ishlab chiqarish hali ham oshib boraveradi. _____.

d) iqtisod berilgan davlat harajatlari darajasida to'la bandlik holatida bo'lganda, investicion harajatlarni oshirish uchun iste'mol qisqartirilishi kerak, shuning uchun narxlar oshishining oldini olish uchun daromad solixini ko'tarish kerak. _____.

e) to'la bandlik va harakatchan narx va ish haqida nominal pul massasini oshirish mahsulot ishlab chiqarishga ta'sir etmaydi, faqat narx oshishi yuz beradi. _____.

j) ishlab chiqarish hajmi darajasi talab bilan aniqlanadi, shuning uchun siyosat jami talabni o'zgartirishga qaratilishi kerak. _____.

z) daromaddan soliqning pasayishi jamg'armalar, investitsiyalar va mehnat unumdorligining oshishiga ko'maklashadi, hamda potencial ishlab chiqarish darajasini oshiradi. _____.

3 mashg'ulot. 2-jadvalda pul massasi hajmi va davlat harajatlarning pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish, narx darajasi, foiz stavkasi va real pul qoldiqlarining oshishi yoki kamayishini plus yoki minus bilan belgilang.

2-jadval.

	Ishlab chiqarish	Foiz stavkasi	narxlar	Real qoldiqlar
Pul massasi kamayishi				
Davlat harajatlari kamayishi				

Diagnostik tekshirish uchun testlar

1. Jami ishlab chiqarish quvvati (Sar) nimadan bog'liq:
 - a) ishlab chiqariladigan mahsulot miqdoridan va sifatidan;
 - b) hamma ishlatiladigan ishlab chiqarish faktorlari miqdoridan va jami talabdan;
 - v) hamma ishlatiladigan ishlab chiqarish faktorlari miqdoridan va ularning unumdorligidan;
 - g) a) va v).

2. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri noto'g'ri:

- a) Q va F tugri bog'liklikka ega;
- b) F va Q oshishi F toki FQ ga teng bo'lmaguncha va Q Cap bilan tenglashmaguncha davom etadi;
- v) resurslarning cheklangan unumdorligi ishlab chikarish faktorlari soni (F) oshgan sayin tushadi, cheklangan harajatlar MFS oshadi;
- g) hamma faktorlar unumdorligi bir hil bo'lganda Q va F bog'liqligi parabola shaklidagi chiziq bo'ladi.

3. Iqtisodiy resurslarga talab nimadan bog'liq emas:

- a) milliy daromad va jami talabdan;
- b) resurslar cheklangan harajatlaridan;
- v) resurslar unumdorligidan;
- g) a) va v) javoblar.

4. Ishlab chiqarish faktorlari taklifi nimadan bog'liq:

- a) resurlarlar narxidan va unumdorligidan;
- b) resurslar cheklangan unumdorligidanva jami taklifdan;
- v) resurslar narxi FP va resurslar harajatlari FC nisbatlaridan;
- g) a) va b) javoblar.

5. Neoklassik nuqtai nazaridan ishlab chiqarish faktorlari bozorida muvozanatni qaysi formula ifodalaydi:

- a) $q'(F) + Prod = g'(F) + FC$.
- b) $q'(F) \cdot P + Prod \cdot P = g'(F) \cdot P' + FC \cdot P$.
- v) $q'(P) \cdot P + Prod \cdot P = g'(F) \cdot P + FC \cdot P$.
- g) $q'(F) + Prod = g'(F) \cdot P'/P + FC$.

6. Resurlarga talab nima ta'sirida oshadi:

- a) jami talab va resurlar unumdorligi oshganda;
- b) resurlar harajatlari pasayganda;
- v) jami talab va resurlar unumdorligi pasayganda;
- g) jami talab oshganda, resurlar unumdorligi pasayganda.

7. Ishlab chiqarish faktorlari taklifi oshadi:

- a) jami talab va resurlar unumdorligi oshganda;
- b) resurlar harajatlari pasayganda;
- v) jami talab va resurlar unumdorligi pasayganda;
- g) inflyacion kutishlar oshganda.

8. Ishlab chiqarish faktorlariga talab egri chizig'i chapga siljiydi:

- a) jami talab va resurlar unumdorligi oshganda;
- b) resurlar harajatlari pasayganda;
- v) jami talab va resurlar unumdorligi pasayganda;
- g) jami talab oshganda, resurlar unumdorligi pasayganda.

9. To'la muvozanat modelining endogen ko'rsatkichlari:

- a) Q, r, P va FP ;
- b) Q, r, P va F ;
- v) Cap, r, P va F ;
- g) Cap, r, P va FP .

10. $IS - LM$ modeli yordamida qaysi egri chiziqni tuzish mumkin:

- a) jami taklif egri chizig'i ni;
- b) jami talab egri chizig'i ni;
- v) pulga talab egri chizig'i ni;
- g) pul taklifi egri chizig'i ni.

11. $FD, FS, q(F)$ egri chiziqlari yordamida qaysi egri chiziqni chizish mumkin:

- a) jami taklif egri chizig'i ni;
- b) jami talab egri chizig'i ni;
- v) pulga talab egri chizig'i ni;
- g) pul taklifi egri chizig'i ni.

12. Uchchala bozor muvozanatini nechta grafik bilan aks ettirish mumkin:

- a) 2;
- b) 3;
- v) 4;
- g) aks ettirish mumkin emas.

13. Quyida keltirilgan holatlarning qaysi biri Q FE dan past darajadagi muvozanatda C, I, GP oshishi yoki NT, MT tushishi natijasida yuzaga keladigan holatga to'g'ri kelmaydi:

- a) r, Q, P endogen ko'rsatkichlar o'sadi;
- b) jami talab egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- v) M egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- g) AS egri chizig'i o'zgarmay qoladi.

14. Quyida keltirilgan holatlarning qaysi biri Q FE dan yuqori darajadagi muvozanatda C, I, GP oshishi yoki NT, MT tushishi natijasida yuzaga keladigan holatga to'g'ri kelmaydi:

- a) r, Q, P endogen ko'rsatkichlar o'sadi;
- b) jami talab egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- v) M egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- g) AS egri chizig'i o'zgarmay qoladi.

15. Quyida keltirilgan holatlarning qaysi biri Q va FE holatidan qat'iy nazar muvozanat darajada FC va P^* oshishi natijasida yuzaga keladigan holatga to'g'ri keladi:

- a) r, Q, P endogen ko'rsatkichlar o'sadi;
- b) jami talab egri chizig'i o'ngga siljiydi;
- v) r va P endogen ko'rsatkichlar o'sadi, Q esa tushadi;
- g) AS egri chizig'i o'ngga siljiydi.

8-MAVZU. IQTISODIY O'SISH

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar:

1. mashg'ulot. 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi miqdorlarni aniqlang:

a) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM real hajmini (jadvalga kiriting).

1-jadval.

Yil	Aholi (mln. Kishi)	YaMM real hajmi (mlrd. so'm)	Aholi jon boshiga YaMM real hajmi (so'm)
1	30	9	
2	60	24	
3	90	45	
4	120	66	
5	150	90	
6	180	99	
7	210	105	

b) mamlakatda optimal aholi sonini.

v) YaMM ning 1 yilga nisbatan 2 yildagi absolyut o'suvini.

g) 4 yilda 3 yilga nisbatan YaMM o'sish sur'atini (frizda).

d) aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM real hajmining 7 yilda 6 yilga nisbatan o'sish sur'atini.

2 mashg'ulot. 2- jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida aniqlang:

a) har yildagi real YaMM hajmini (jadvalga kiriting).

b) 2 yilda 1 yilga nisbatan mehnat unumdorligi necha foizga o'sgan? Buning natijasida YaMM real hajmi necha foizga o'sdi (mehnat miqdori o'zgarmay qoladi)?

v) 3 yilda 2 yilga nisbatan mehnat miqdori necha foizga o'sgan? Buning natijasida YaMM real hajmi necha foizga o'sdi (mehnat unumdorligi o'zgarmay qoladi)?

g) 3 yilda 1 yilga nisbatan YaMM real hajmi necha foizga o'sgan?

.2.-jadval.

Yil	Mehnat miqdori (soat)	Mehnat unumdorligi (so'm)	YaMM real hajmi (mlrd. so'm)
1	1000	100	
2	1000	105	
3	2000	105	


3 mashg'ulot. a) faraz qilamiz, iqtisodiy kam rivojlangan mamlakatda kapital/mahsulot nisbati 3 ga teng. To'la bandlik sharoitida 10 mln so'm miqdoridagi investitsiyalar YaMM hajmiga qanday ta'sir etadi?

b) faraz qilamiz, jamg'armalarning YaMM dagi hissasi 5%, kapital/mahsulot nisbati 3 ga teng. To'la bandlik sharoitida YaMM o'sish sur'atini aniqlang.

v) jamg'armalarning YaMM dagi hissasi 10% gacha oshganda YaMM o'sish sur'ati qancha bo'ladi?

g) agar b) punktda ko'rsatilgan sharoitlarda aholi soni bir yilda 4% ga ohsa, to'la bandlik sharoitida jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM o'sish sur'atini aniqlang. v) punktda ko'rsatilgan sharoitlarda - chi?

4 mashg'ulot. Faraz qilamiz, iqtisodiy kam rivojlangan mamlakatda kapital/mahsulot nisbati 2 ga teng, to'la bandlik sharoitida YaMM hajmi 20 mlrd. so'm. Soddashtirish uchun davlat harajatlari va tashqi savdo hisobga olinmaydi. Iste'mol funksiyasi SS` 1- rasmda keltirilgan.



1- rasm. Iste'mol funksiyasi.

- a) to'la bandlikka erishilgan holatdagi shu yilgi investitsiyalar hajmini aniqlang.
- b) kelgusi yilda to'la bandlik sharoitida YaMM miqdorini aniqlang.
- v) kelgusi yilda to'la bandlik darajasiga erishish uchun investitsiyalar hajmi qanday bo'lishi kerak (iste'molga cheklangan moyillik 0.5 ga teng).

5 mashg'ulot. Faraz qilamiz mamlakatda jami talabning yagona komponentlari investitsiya va iste'mol hisoblanadi. Iste'molga o'rtacha moyillik 0.8, kapital/mahsulot nisbati 2 ga teng. Ko'rsatilgan muddatning hammasida iqtisod to'la bandlik sharoitida. 3-jadvalni etishmaydigan ma'lumotlar bilan to'ldiring.

3-jadval.

Yil	YaMM	Jamxar-malar	Investitsiyalar	To'la bandlik sharoitida YaMM miqdorining o'zgarishi
				Mln. so'm.
1997	1000			
1998				
1999				
2000				

Diagnostik tekshirish uchun testlar:

1. Quyidagi ko'rsatkichlardan qaysi birini mamlakatning harbiy kudratini baholash uchun ishlatsa bo'ladi:

- a) YaMM nominal hajmi;
- b) YaMM real hajmi;
- v) Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM ning nominal hajmi;
- g) Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM ning real hajmi;
- d) Oilada bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad.

2. Quyida keltirilgan tengliklardan qaysi biri to'g'ri:

- a) mahsulot hajmi = mehnat unumdorligi / ish vaqti soatlari miqdori;
- b) mehnat unumdorligi = ish vaqti / mahsulot hajmi;
- v) mahsulot hajmi = ish vaqti * mehnat unumdorligi;
- g) ish vaqti = mehnat unumdorligi * mahsulot hajmi;
- d) mehnat unumdorligi = ish vaqti * mahsulot hajmi.

3. Iqtisodi rivojlangan mamlakatlar statistikasi ko'rsatishicha:

- a) YaMM dagi investitsiyalar salmoxi va mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari teskari bog'liqlikda;
- b) YaMMning sarmoyalarga yo'naltirilgan ulushi va mehnat unumdorligi o'sish sur'atlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri mustahkam bog'liqlik mavjud;
- v) korporaciya daromadlari va shahsiy daromadlarga bo'lgan yuqori soliq quyilmalari investitsiyalarni raxbatlantiradi;
- g) yuqori darajadagi ishsizlik davrlarida ish joylari yaratilmaydi;
- d) ish bilan band ishchilar sonining kamayishi o'rtacha mehnat unumdorligining pasayishiga olib keladi.

4. Mehnat unumdorligi quyidagi nisbat orqali aniqlanadi

- a) kapital harajatlarning mehnat harajatlariga nisbati;
- b) mahsulotning haqiqiy hajmining ish vaqtiga nisbati;
- v) mahsulot haqiqiy hajmining aholi sonining nisbati;
- g) ish vaqtining haqiqiy YaMM hajmiga nisbati;
- d) kapital harajatlarning mahsulotning real hajmiga nisbati.

5. To'la bandlik erishilgan iqtisodiyotda yuqori sur'atli iqtisodiy o'sishga erishish uchun quyidagi talab qo'yiladi:

- a) jamg'armalar va investitsiyalar past normasi;
- b) jamg'armalarning yuqori normasi va investitsiyalarning past normasi;
- v) jamg'armalar va investitsiyalar yuqori normasi;
- g) jamg'armalar va investitsiyalar normasi pasayishi;
- d) jamg'armalar past normasi va investitsiyalar yuqori normasi.

6. Agarda H shahrida kapitalning mahsulotga nisbati 3 ga, U shahrida esa 2 ga teng bo'lsa, investitsiyaga ketadigan YaMMning ulushi ikki shaharda ham bir hilda bo'lsa, u holda H shahridagi YaMMning o'sish sur'ati:

- a) U shahriga qaraganda 50 % ga yuqori;
- b) U shahriga nisbatan 2 marta past;
- v) U shahridagi o'sish sur'atining $\frac{2}{3}$ qismiga teng;
- g) U shahriga qaraganda $33\frac{1}{3}\%$ ga ko'p;
- d) oldin berilgan barcha javoblar noto'g'ri.

7. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy sababi - bu:

- a) ish vaqti hajmining oshishi;
- b) ishlab chiqarishdagi texnologik o'zgarishlar;
- v) foydalaniladigan kapital hajmining oshishi;
- g) iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi pul-kredit va fiskal siyosatni amalga oshirish;
- d) ishchi kuchi malakasining oshishi.

8. Quyidagilarning qaysi biri mehnat unumdorligining o'sishiga ta'sir etmaydi:

- a) texnologik o'zgarishlar;
- b) ishchilar sonining ko'payishi;
- v) ishchilarning ma'lumoti va malakasi darajasi;
- g) ishlab chiqarish ko'lamini samarasi;
- d) ishlab chiqarishni tashkil etish darajasi.

9. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda har biri 3000 soat ishlaydigan 50 ta ishchi band. Agar mehnat unumdorligini soatiga 8 so'mni tashkil etsa, ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy hajmini toping:

- a) 150 ming so'm;
- b) 750 ming so'm;
- v) million so'm;
- g) 1200000 so'm;
- d) 1400000 so'm.

10. To'la bandlik erishilgan iqtisodida resurslar ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish sohasiga qarab sezilarli siljisa, unda quyidagilardan qaysini kutish mumkin?

- a) joriy iste'mol hajmining oshishini;
- b) kelajakda iste'mol hajmining kamayishini;
- v) YaMM o'sish sur'atlarining pasayishini;
- g) mehnat unumdorligi o'sishini;
- d) investitsiyalar hajmi kamayishini.

11. YaMM real hajmi va aholi jon boshiga real YaMM hajmi o'sishi to'g'risida ma'lumot:

- a) Jon boshiga real YaMM hajmi jami real YaMM hajmiga nisbatan doimo tez o'sishini ko'rsatadi;
- b) iqtisodiy o'sishni pasaytirib ko'rsatadi, chunki bu ko'rsatkichlar atrof-muhitni ifloslash omilini hisobga olmaydi;

v) iqtisodiy o'sishni pasaytirib ko'rsatadi, chunki bu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishni qisqartirishni hisobga olmaydi;

g) iqtisodiy o'sishni oshirib ko'rsatadi, chunki ular hayot sifatini yaxshilashni e'tiborga olmaydi;

d) YaMM real hajmi nominal hajmiga nisbatan doimo tez o'sishini ko'rsatadi.

12. Iqtisodiy o'sish ifodalanishi mumkin:

a) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ning chapga siljishi bilan;

b) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ning o'ngga siljishi bilan;

v) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i bo'ylab nuqtaning harakati bilan;

g) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ning ichida bir nuqtadan boshqasiga o'tishi bilan;

d) ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i ning tashqarisida bir nuqtadan boshqasiga o'tishi bilan.

13. "AD - AS" modelida iqtisodiy o'sish ifodalanishi mumkin:

a) AS egri chizig'i ning chapga siljishi;

b) AD egri chizig'i ning chapga siljishi;

v) AD egri chizig'i ning o'ngga siljishi;

g) AS egri chizig'i ning o'ngga siljishi;

d) Hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

14. Iqtisodiy o'sish nazariyasi tarafdorlari o'z konsepciyasini himoyalashda quyida keltirilgan ta'kidlardan qaysi biriga tayanmaydilar?

a) iqtisodiy o'sish hayot farovonligi darajasini oshiradi;

b) iqtisod rivojlanganda qashshoqlik bilan kurash oson;

v) YaMM real hajmi o'sishi bilan atrof-muhitni soxlomlashtirish o'rtasida turli bog'liqlik bor;

g) iqtisodiy o'sish ma'lumot va malakaning oshishiga tayanch yaratadi;

d) iqtisodiy o'sish mamlakat himoyasini mustahkamlashga olib keladi.

15. A mamlakatda YaMMning jamxariladigan (investitsiyalanadigan) qismi 15%, B mamlakatda 10%. Kapitalning mahsulotga nisbati ikkala mamlakatda barobar deb hisoblasak, A mamlakatda YaMM o'sish sur'ati qanday bo'ladi?

a) B mamlakatdagiga nisbatan 50 % ga yuqori;

b) B mamlakatdagiga nisbatan 5 % ga yuqori;

v) B mamlakatdagiga qaraganda $33\frac{1}{3}\%$ ga ko'p;

g) B mamlakat o'sish sur'atiga teng;

d) Hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

9-MAVZU. FISKAL SIYOSAT VA DAVLAT BYUDJETI.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1-mashg'ulot. Mamlakat iqtisodi quyidagi ma'lumotlar bilan xarakterlanadi:

Haqiqiy daromad (U) = 4000 so'm

Istemolga cheklangan moyillik (MRC) = 0.8

Muvozanat daromad (U*) = 4200 so'm

- iqtimod muvozanat holatga (U*) erishishi uchun davlat xarajatlari qanday o'zgarishi kerak?
- iqtimod muvozanat holatga erishishi uchun soliq tushumlari miqdori qanchaga o'zgarishi kerak?

2-mashg'ulot. 1-jadvalda SMMning turli darajalariga to'g'ri keladigan iste'mol xarajatlari va jamg'armalar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan (mln.so'm).

1- jadval.

Real SMM	C	S	Ca	Sa	Ca+M+T	I+X+C	C+I+X _p +G
1500	1250	250					
1600	1340	260					
1700	1430	270					
1800	1520	280					
1900	1610	290					
2000	1700	300					
2100	1790	310					

(Ca va Sa – soliqlar to'langandan keyingi iste'mol xarajatlari va jamg'armalar; M - import; X - eksport; X_p- sof eksport).

- hukumat soliqlari 100 mln. so'm, import - 5 mln. so'm. SMM ning Har bir darajasida soliqlar to'langandan keyin iste'mol xarajatlari va jamg'armalar miqdorini aniqlang va jadvalga kiriting.
- iste'moldan chiqarish miqdorini hisoblang:
- Ca+M+T va jadvalga kiriting.
- planli investitsiyalar 150 mln. so'm, eksport – 5 mln. so'm. In'ektsiyalar qiymatini hisoblang: I+X+G va jadvalni to'ldiring.
- jami xarajatlarni hisoblang: Ca+I+X+G va jadvalga kiriting.
- muvozanat real SMM hajmini hisoblang.
- agar soliq to'lovlari o'zgarmay, hukumat xaridlari 10 mln.so'mga ohsa, SMM muvozanat hajmi qanday o'zgaradi?
- agar davlat xaridlari oldingiday 200 mln.so'm bo'lib, soliq to'lovlari 100 dan 110 mln.so'mga ohsa, SMM muvozanat hajmi qanday o'zgaradi?
- bir vaqtning o'zida ham davlat xaridlari, ham soliqlar 10 mln.so'mga ko'tarilsa, SMM muvozanat hajmi qanday o'zgaradi?

3-mashg'ulot. A mamlakatda iste'mol funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega (mlrd.so'm):

Ixtiyordagi daromad (D)	900	1000	1100	1200	1300	1400
Iste'mol xarajatlari (C)	750	800	850	900	950	1000

- planli investitsiyalar (I) 200 mlrd. so'm, davlat xarajatlari va sof eksport (G+Xp) 100 mlrd.so'mga teng deb faraz qilamiz. C+I+G+Xp -jami xarajatlar egri chizig'ini chizing.
- YaMM ning muvozanat hajmini aniqlang (narx darajasi o'zgarmaydi).
- to'la bandlik sharoitida YaMM darajasi 1400 mlrd.so'm bo'lsin. Unda jami xarajatlar va to'la bandlikdagi YaMM darajasi o'rtasida qanday farq bo'ladi: inflyatsion yoki deflyatsion?
- hukumat to'la bandlikka erishishi uchun qanday tadbirlar qo'llashi mumkin?
- davlat xarajatlarining 1 mlrd. so'mga o'sishi YaMM muvozanat hajmiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- solliqlar qiymati YaMM hajmining 10 foizi bo'lganda iste'mol xarajatlari chizig'ini rasmda chizing.
- I=200, G+Xp =100 mlrd. so'm bo'lsa, C+I+G+Xp egri chizig'ini chizing.YaMM muvozanat hajmini aniqlang.
- agar solliqlar darajasi (1) oshsa, (2) tushsa, YaMM muvozanat hajmi qanday o'zgaradi?

4-mashg'ulot. Hukumat chet el banklaridan 1 mlrd.dol. 8 foiz yillik stavka bilan qarz oldi. Bu vositalar kelasida milliy mahsulot ishlab chiqarishni yiliga 300 mln.dollarga oshiruvchi loyihalarni amalga oshirishga yuboriladi.

- bu qarz davlat qarzini oshiradimi va qanchaga?
 - bu mamlakat fuqarolariga solinadigan sof moliyaviy og'irlik oshadimi?
- 5-mashg'ulot. 2 -jadvalga qarang.

a) to'la bandlik sharoitida erishiladigan YaMM hajmi 900 mlrd. so'm bo'lganda; 1100 mlrd. so'm bo'lgandagi byudjet salbdosi miqdorini va xarakterini aniqlang.

b) to'la bandlik sharoitida kutiladigan investitsiyalar va jamg'armalar o'rtasida nisbat qanday (eksport va import nolga teng)?

2- jadval.

YaMM (mlrd. so'm)	Soliq tushumlari (mlrd. so'm).	Davlat xarajatlari (mlrd. so'm).
800	200	260
900	230	260
1000	260	260
1100	300	260

Diagnostik tekshirish uchun testlar:

1. Inflyatsiyaga qarshi yaqqol ifodalangan fiskal siyosat quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) soliqlar miqdorini oshirish va davlat xarajatlarini kamaytirish;
- b) ham soliq tushumlarini, ham davlat xarajatlarini kamaytirish;
- c) soliqlarni va davlat xarajatlarini oshirish;
- d) soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini oshirish;
- e) soliqlar va davlat xarajatlari darajasining doimiyligi.

2. Taklif iqtisodi nazariyasiga binoan byudjet ekspansiyasi siyosati ehtimollaydi:

- a) soliqlarning sezilarli o'sishini;
- b) byudjet ortiqchaligi va soliqlarning kam o'sishini;
- c) soliqlarning sezilarli kamayishini;
- d) hamma yuqoridagi javoblar to'g'ri;
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

3. Iqtisod muvozanat holatda. Agar davlat soliq tushumlarini o'zgartirmay turib, o'z xaridlarini 2 mlrd. so'mga oshirsa, muvozanatdagi YaMM qanday o'zgaradi? Ma'lumki, iste'molga cheklangan moyillik - 0,75, importga cheklangan moyillik 0,25.

- a) 4 mlrd. so'mga kamayadi;
- b) 2 mlrd. so'mga o'sadi;
- c) 6 mlrd. so'mga o'sadi;
- d) 8 mlrd. so'mga o'sadi;
- e) 4 mlrd. so'mga o'sadi.

4. Agar iqtisod muvozanat holatda bo'lsa, unda:

- a) iste'mol xarajatlari investitsiyalarga teng bo'lishi kerak;
- b) tadbirkorlar daromadlari yalpi investitsiyalarga teng bo'lishi kerak;
- c) iste'mol xarajatlarining qanday oshishi inflyatsion farqqa olib kelishi kerak;
- d) turli darajadagi byudjetlar muvozanatda bo'lishi kerak;
- e) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

5. Soliqqa tortish va xarajatlar sohasidagi hukumat siyosati quyidagicha nomlanadi:

- a) pulning miqdoriy nazariyasiga asoslangan siyosat;
- b) monetar siyosat;
- c) faoliyat tsikli;
- d) fiskal siyosat;
- e) daromadlarni taqsimlash siyosati.

7. Agar hukumat haqiqiy SMM darajasini oshirmoqchi bo'lsa:

- a) soliqlarni kamaytiradi;
- b) davlatning tovar va xizmatlar xaridini kamaytiradi;
- c) transfert to'lovlarini kamaytiradi;

- d) byudjet defitsitligi darajasini kamaytiradi;
- e) faqat a) b) javoblar to'g'ri.

8. Iqtisod to'la bandlik sharoitida muvozanatda. Hukumat inflyatsiyaga yo'l qo'ymasdan, ya'ni YaMMning muvozanatlashgan darajasini saqlab qolgan holda, tovar va xizmatlar xaridini 10 mlrd. so'mga soliqlari ko'tarish bilan birga oshirishni ko'zlamogda. Soliqlar qanchaga oshirilishi kerak?

- a) 10 mlrd so'mdan ko'p;
- b) 10 mlrd. so'm;
- c) 10 mlrd so'mdan kam (faqat 0 emas);
- d) 0;
- e) 0 dan kam, ya'ni soliq tushumlari pasaytirilishi shart.

9. Davlat qarzi bu oldingi:

- a) davlat xarajatlari;
- b) byudjet defitsitlari;
- c) byudjet defitsitlari minus byudjet ortiqchaligi;
- d) byudjet ortiqchaligi minus byudjet defitsiti;
- e) mamlakat himoyasi xarajatlari.

10. Davlat byudjeti defitsiti qanday holatda paydo bo'ladi?

- a) davlatning aktivlari miqdori uning majburiyatlari miqдорidan ko'p;
- b) davlat xarajatlari soliq tushumlaridan yuqori;
- c) davlat xarajatlari kamayganda;
- d) soliq tushumlari qisqarganda;
- e) davlat majburiyatlari uning aktivlaridan ko'p.

10 - MAVZU. MONETAR SIYOSAT.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1 mashg'ulot. 1-jadvalda tijorat bankining soddalashtirilgan balans hisoboti keltirilgan (so'mlarda).

A,B,V,G balans hisobotlarini quyidagi har bir operaciyani bank tomondan amalga oshirilgandan keyin tuzing. Har bir operaciyadan oldin Boshlanxich balans hisobotni hisobga olish kerakligini unutmang.

a) Bank omonatchilarning biri tomonidan olingan 50 so'mga chek ishlatilgan va chekni olgan kishi uni boshqa bankka qo'ydi.

b) Omonatchi o'z hisobidan 50 so'm naqd pul oldi. Bank o'z naqd pulini markaziy bankdan 50 so'm olib to'ldirdi.

v) Boshqa bank tomonidan berilgan 60 so'mli chek bu bankka qo'yildi.

g) Bank markaziy bankka 100 so'mga davlat obligatsiyalarini sotadi.

1 - jadval.

	A	B	B	Г
Aktivlar:				
Naqd pul	100			
Rezervlar	200			
Ssudalar	500			
Qimmatbaho qoxozlar	200			
Majburiyatlar va shahsiy kapital				
Talab qilguncha omonat	900			
Aksiyalar	100			

2 mashg'ulot. Tijorat banki balans hisoboti quyidagi ko'rinishda (mln.so'm):

Aktivlar		Majburiyatlar va shahsiy kapital	
Rezervlar	30	Talab qilguncha omonatlar	80
Ssuda va qimmatbaho qoxozlar	70	Aksiyalar	20

a) Majburiy rezervlar 15% tashkil etadi, deb faraz qilamiz. Agar bank maksimal imkoni bor miqdorda qarz bersa, uning balans hisoboti qanday bo'ladi (agar hamma ssuda bo'yicha olingan pullar boshqa banklar hisobiga o'tkazilsa).

b) markaziy rezervlar 20%ni tashkil etadi. a) punktdagi shartlarda bank balans hisoboti qanday bo'ladi?

3 mashg'ulot. Tijorat banklari majburiy rezervlari normasi talab qilguncha omonatlar qiymatidan 20 % ni tashkil etadi. Faraz qilamiz, omonatchilar N1 tijorat bankida talabgacha bo'lgan omonatlarni 100000 so'mga oshirdilar.

a) Bank rezervlariga bu qanday ta'sir ko'rsatadi? Bank qancha mablxga beriladigan ssudalar hajmini oshirishi mumkin?

b) Faraz qilamiz, bank N1 maksimal imkoni bor miqdorda ssuda berdi. Ssuda H sub`ektiga berildi, u esa A firmadan kerakli tovar xizmatlar sotib olishga ishlatdi. Bu firma bank N2 hisobiga bu qiymatni o'tkazdi. Bank N1 ning balans hisoboti qanday o'zgardi. Ko'rsating.

v) Bank N2 balans hisoboti qanday o'zgaradi?

g) Bank N2 beriladigan ssudalar hajmini oshirib bo'ladimi? Qancha miqdorga?

d) Bank N2 Y sub`ektga maksimal miqdorda ssuda berdi. Y Z sub`ektdan er sotib oldi. Z esa pulni bank N3 ga kuydi. Bu bank operaciyasi bank N2 balans hisobotiga qanday ta`sir ko'rsatdi?

e) Bank N3 balans hisoboti qanday o'zgaradi, ko'rsating.


j) Bank N3 beriladigan ssudalar hajmini oshirishi mumkinmi va qanchaga?

z) Qancha mablxda bank tizimi pul yaratdi?


4 mashg'ulot. a) 1- rasmda pulga talab egri chizig'i berilgan. Pul taklifi hajmi 300 so'm. Chizmada pul taklifi egri chizig'i ni chizing. Muvozanat protsent stavka darajasini aniqlang.

b) 2- rasmda investitsiyalarning talab egri chizig'i berilgan. a) punktda belgilangan muvozanat protsent stavkada investitsiyalar miqdorini aniqlang.


v) 3- rasmda jamxarmalar egri chizig'i berilgan. Bu rasmda investitsiyalar chizig'i ni aks ettiring. SMM muvozanat hajmini aniqlang/



1- rasm.



2-rasm.



3-rasm

g) Pul taklifi 400 so'mgacha oshdi. 11.1. rasmda pul taklifining yangi egri chizig'i ni chizing. Muvozanat protsent stavka darajasini, planlashtirilgan investitsiyalar hajmini va muvozanat SMM hajmini aniqlang.

d) To'la bandlik va inflyatsiya yo'q bo'lgan sharoitda SMM hajmi 875 so'mni tashkil etdi. Jamxarmalar miqdorini, investitsiyalar hajmini (bu SMM darajasi muvozanat bo'lgan sharoitda); bu investitsiyalar miqdoridan protsent stavka darajasini; bu protsent stavkada pul taklifi hajmini aniqlang.

e) Jamxarmaga cheklangan moyillikni va multiplikator miqdorini aniqlang.

j) Planlashtirilgan investitsiyalar va muvozanat SMM hajmi protsent stavka 1 punktga kamayganda qanday o'zgarishini aniqlang.

z) Pul taklifi qanday o'zgarishi kerakki, protsent stavka bir punktga kamaysin?

5 mashg'ulot. 2- jadvalda tijorat banki balans hisoboti besh variantda berilgan (so'm). Majburiy rezervlar normasi 20%.

2- jadval.

	1	2	3	4	5
Aktivlar:					
Naqd pul	10	20	30	40	50
Rezervlar	40	40	25	40	25
Ssudalar	100	100	100	100	150
Qimmatbaho qoxozlar	50	60	30	70	60
Majburiyatlar va shahsiy kapital					
Talabgacha omonatlar	175	200	150	180	220
Aksiyalar	25	20	25	50	50
Majburiy rezervlar					
Ortiqcha rezervlar					
Bank tomonidan berilishi mumkin bo'lgan yangi ssudalar hajmi					

Majburiy rezervlar, ortiqcha rezervlar, hamda bank berishi mumkin bo'lgan yangi ssudalar hajmini aniqlang va jadvalga kiriting.

6-mashg'ulot. 4., 5 va 6. rasmlar pul va tovar bozorlari o'zaro bog'liqligini harakterlaydi.

Aniqlang:

a) Davlatning pul kredit siyosati sohasidagi tadbirni, agar noinflyacion muvozanat **SMM** hajmi to'la bandlik sharoitida 800 mlrd. so'm; 900 mlrd. so'm bo'lsa.

b) Pul taklifi hajmini, agar muvozanat noinflyacion **SMM** hajmi to'la bandlik sharoitida 700 mlrd.so'mni tashkil etsa.

v) Protsent stavka darajasini, investitsiyalar hajmini va muvozanat noinflyacion **SMM** ning to'la bandlik sharoitidagi hajmini, agar pul taklifi 320 mlrd.so'mni tashkil etsa.

g) Muvozanat noinflyacion **SMM** ning to'la bandlik sharoitidagi hajmi 800 mlrd. so'm, joriy investitsiyalar darajasi esa 170 mlrd. so'm bo'lganda, pul taklifi qanday o'zgarishini.

7-mashg'ulot. Pulga talab (**Md**) miqdori **YaMM** miqдорidan (**GNP**) va protsent stavka darajasidan (i) quyidagicha bog'liqda deb faraz qilamiz:

$$Md = 0,4 \cdot GNP - 2i \quad (Md \text{ va } GNP \text{ mlrd.so'm; } i-\%)$$

- a) Agar $GNP=100$ mlrd.so'm, $i=8\%$ bo'lsa, pulga talab nimaga teng?
 b) Agar $Md=Ms$ (pul taklifi) ga $YaMM = 100$ mlrd. so'm bo'lsa, pul muomalasi tezligi nimaga teng?
 v) Faraz qilamiz, pul taklifi 24 dan 30 mlrd. so'mga oshdi. Buning natijasida **YaMM** 110 mlrd.so'mgacha oshdi, procent stavka esa 7% gacha kamaydi. Pulga talab miqdorini aniqlang va $Md=Ms$ tenglik saqlanib qolganligini tekshiring.
 g) **YaMM** raxbatlantiruvchi fiskal siyosat natijasida 115 mlrd. so'mgacha oshdi, procent stavka esa 8 % gacha oshdi. **Md** avvalgiday 30 mlrd. so'm. Pulga talab miqdorini hisoblang va pul bozorida muvozanat saqlandimi, aniqlang.
 d) g) punktdagi sharoitlarda pul muomalasi tezligi qanday o'zgaradi? Topilgan javob keynsionistlarning V-o'zgaruvchan miqdor degan tasdiqlariga mos keladimi?

8-mashg'ulot. Monetaristlar koncepciyasi bo'yicha $MV=PQ$ (bunda **M**-muomaladagi pul miqdori, **V**-pul muomalasi tezligi; **Q**-tovar va hizmatlarning jismoniy hajmi; **P**-narx darajasi) va pul muomalasi tezligi o'zgarimas bo'lib, 4ga teng. 3-jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib quyidagi topshiriqlarni bajaring.

Hamma hisoblar monetaristlar koncepciyasiga asoslanishi kerak.

3- jadval.

P (so'm)	Q (so'm)	PQ (so'm)	MV (so'm)
1,0	100		
2,0	110		
3,0	120		
4,0	130		
5,0	140		
6,0	150		
7,0	160		


- a) Har bir narx darajasida ishlab chiqarishning nominal hajmini hisoblang, jadvalga kiriting.
 b) Har bir narx darajasida MV miqdorini hisoblang, jadvalga kiriting. Agar $M=90$ so'm bo'lsa, nominal ishlab chiqarish hajmining, narxning va mahsulot jismoniy hajmining muvozanat miqdorlarini aniqlang.
 v) Agar $M=175$ so'm bo'lsa, har bir narx darajasida MV miqdorini, nominal ishlab chiqarish hajmining, narxning va mahsulot jismoniy hajmining muvozanat miqdorlarini aniqlang.

9-mashg'ulot. 4- rasmda jami taklif (S_1, S_2, S_3) va jami talab (D_1, D_2) egri chiziqlari berilgan.

a) Rasmdagi jami taklif egri chiziqlaridan Har biri qaysi nazariyaga (keynsionistlar, monetaristlar va neoklassiklar) to'xri keladi?

b) Agar jami talab D_1 egri chiziq bilan berilgan bo'lsa, hamma jami taklif egri chiziqlari uchun umumiy muvozanat ishlab chiqarish hajmini va narx darajasini aniqlang.

v) D_1 D_2 holatga ko'chdi. Real ishlab chiqarish hajmi va narx darajasi (1) monetaristlar; (2) keynsionistlar; (3) neoklassiklar nuqtai nazari bo'yicha qanday o'zgaradi.



4-расм.

Diagnostik tekshirish uchun testlar:

1. Majburiy rezerv me`yori:

- a) Birinchi navbatda pul massasini cheklash vositasi sifatida joriy qilinadi;
- b) omonatlarni olishda muhofaza vositasi sifatida joriy qilinadi;
- v) aholi ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan o'rtacha pul massasi miqdorini tashkil etadi;
- g) hozir ishlatilmaydi;
- d) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

2. Tijorat bank tizimi joriy hisoblarni yaratib, pul qarzga beradi. Natijada pul massasi:

- a) Naqd pullar umumiy miqdori va bank depozitlari miqdorida kamayadi;
- b) kamaymaydi ham, ko'paymaydi ham;
- v) depozitlar umumiy summasiga nisbatan kam miqdorda ko'payadi;
- g) depozitlar umumiy summasiga teng miqdorda ko'payadi;
- d) depozitlar umumiy summasiga nisbatan ko'p miqdorda ko'payadi.

3. Har safar umumiy pul massasi oshadi, qachonki tijorat banklari:

- a) markaziy bankdagi o'z omonatlarini oshirsa;
- b) Aholiga beradigan qarzlarni hajmini oshirsa;
- v) Omonat sifatida aholidan naqd va naqdsiz pullarni olish yo'li bilan joriy hisoblar bo'yicha o'z majburiyatlarini oshirsa;

- g) markaiy bankdan o'z omonatlari bir qismini olsa;
- d) omonatlar bo'yicha naqd va naqdsiz pullar to'lab, joriy hisoblar bo'yicha o'z majburiyatlarini kamaytirsa.

4. Bir qancha banklardan biri bo'lgan H bankda 10000 so'm miqdorida depozit bor. Majburiy rezerv me'yori 25% belgilangan. Bu depozit beriladigan qarz miqdorini oshirishi mumkin, kamida:

- a) noaniq miqdorga;
- b) 7500 so'mga;
- v) 10000 so'mga;
- g) 30000 so'mga;
- d) 30000 so'mdan ko'p.

5. Agar 10000 so'mlik depozit naqd pul miqdorini oshirishga olib kelmaydi, deb hisoblasak, unda depozit kredit miqdorini qanchaga oshirishga qodir?

- a) Noaniq miqdorda;
- b) 7500 so'mga;
- v) 10000 so'mga;
- g) 30000 so'mga;
- d) 30000 so'mdan ko'p.

6. Agar H bank monopolist bo'lsa, 4 testdagi qolgan shartlar saqlansa, depozit, beriladigan qarzlar hajmini qanchalik maksimal miqdorda oshirishi mumkin?

- a) 0;
- b) 7500 so'mga;
- v) 10000 so'mga;
- g) 30000 so'mga;
- d) 30000 so'mdan ko'p.

7. Agar 4 testda ko'rsatilgan depozitga Y bankka 10000 so'mga chek yozilgan bo'lsa, unda bu depozit (boshqa depozitlar hisobga olinmaydi) H bankka beriladigan qarzlar hajmini qanchaga oshirish imkonini beradi?

- a) 0;
- b) 7500 so'mga;
- v) 10000 so'mga;
- g) 30000 so'mga;
- d) 30000 so'mdan ko'p.

8. 7 testda ko'rsatilgan depozit jami bank tizimiga qanday hajmda beriladigan ssudani oshirish imkonini beradi?

- a) 0;
- b) 7500 so'mga;
- v) 10000 so'mga;
- g) 30000 so'mga;
- d) 30000 so'mdan ko'p.

9. Tijorat banki ortiqcha rezervlari nimadan iborat:
- a) zarur bo'lgan paytda pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan pul bo'lmagan aktivlar;
 - b) bankda saqlanayotgan va bank depozitlarining hajmidan 100% dan ortiq bo'lgan pul va "qariyb pul" aktivlar;
 - v) bankda joriy ehtiyojga qarab emas, qonun talabi bilan saqlanishi kerak bo'lgan pullar;
 - g) haqiqiy rezervlar va majburiy rezervlar o'rtasidagi farq;
 - d) aktivlar miqdori va joriy hisoblardagi omonatlar miqdori o'rtasidagi farq.

10. Majburiy rezervlar normasini 20 % dan 30 % ga oshirganda, tijorat banklari tizimi 60 mln. so'm miqdorda rezerv etishmovchiligiga ega bo'lishi ma'lum bo'ldi. Agar rezervlar miqdorini oshirish imkoni bo'lmasa, qanchaga pul massasini qisqartirish kerak?

- a) 60 mln. so'm;
- b) 180 mln. so'm;
- v) 200 mln. so'm;
- g) 300 mln. so'm;
- d) 350 mln. so'm.

11. Muddatsiz omonatlar miqdorining maksimal o'sishi teng:

- a) haqiqiy rezervlar minus ortiqcha rezervlar;
- b) aktivlar minus majburiyatlar va hususiy kapital;
- v) ortiqcha rezervlarning pul multiplikatoriga ko'paytmasi;
- g) ortiqcha rezervlarning pul multiplikatoriga bo'linmasi;
- d) majburiy rezervlar.

12. Quyidagilardan qaysi biri bank aktivlariga ta'luqli?

- a) omonatlar, aksiyalar, rezervlar;
- b) naqd pullar, mulk va rezervlar;
- v) naqd pullar, mulk va aksiyalar;
- g) naqd pullar, aksiyalar va omonatlar;
- d) rezervlar, ssudalar va aksiyalar.

13. Yangi omonatlar va bank tizimi tomonidan yaratiladigan pullar hajmini D bilan, ortiqcha rezervlar miqdorini - E, pul multiplikatorini - m bilan belgilaymiz. Quyidagi ifodalardan qaysi biri to'xri?

- a) $m=E:D$;
- b) $D=E*m$;
- v) $D=E-1$;
- g) $D=m:E$;
- d) $D=E-m$.

14. Agar majburiy rezervlar normasi 100% bo'lsa, pul multiplikatori nimaga teng?

- a) 0;
- b) 1;
- v) 10;
- g) 100;
- d) -1.

15. Agar markaziy bank YaMM hajmini oshirishga harakat qilsa, quyidagi tadbirlardan qaysi birini amalga oshirmasligi kerak:

- a) umumiy harajatlarni darajasini oshirish uchun investicion harajatlarni ko'paytirish;
- b) naqd pul egalariga kreditni e'tiborli qilish uchun protsent stavkani oshirish;
- v) banklar tomonidan o'z pul bo'lmagan aksiyalarini oshirishni raxbatlantirish uchun bank rezervlarini oshirish;
- g) joriy hisoblarda vositalarni oshirish;
- d) kredit olishni engillashtirish.

16. Quyida keltirilgan besh kombinatsiyalardan qaysi biri markaziy bank tomonidan odatda qo'llaniladigan pul siyosati dastagi hisoblanadi?

- a) hisob stavkalari siyosati, aksiyalar sotib olishda qonun bilan belgilanadigan marja ustidan nazorat;
- b) qonun bilan belgilangan majburiy rezervlar me'yorini o'zgartirish;
- v) ochiq bozordagi operatsiyalar va hisob stavkalarini o'zgartirish;
- g) hisob stavkalari siyosati va qonun bilan belgilangan majburiy rezervlar me'yorini o'zgartirish;
- d) ochiq bozordagi operatsiyalar, majburiy rezervlar me'yorini o'zgartirish va iste'mol krediti ustidan nazorat.

17. Agar markaziy bank hisob stavkasini ko'tarsa, unda bu tadbir pul siyosatining bir qismi bo'lib, boshqa tadbirlar bilan birgalikda birinchi navbatda nimaga qaratilgan?

- a) tijorat banklari rezervlari umumiy miqdorini kamaytirishga;
- b) aholi jamxarmalari miqdorini oshirishni raxbatlantirishga;
- v) markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar hajmini oshirishga;
- g) tijorat banklari rezervlari umumiy miqdorini oshirishga;
- d) boshqa maqsadlarga erishishga.

18. Markaziy bank ochiq bozorda aholiga keng miqyosda davlat qimmatbaho koxozlarini sotishni amalga oshiradi. Bu tadbirning asosiy maqsadi nimada?

- a) tijorat banklari rezervlari umumiy miqdorini kamaytirishga;
- b) aholi jamxarmalarini miqdorini oshirishni raxbatlantirishga;

- v) markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudalar hajmini oshirishga;
- g) tijorat banklari umumiy rezervlari miqdorini oshirishga;
- d) boshqa maqsadlarga erishishga.

19. Markaziy bank uchun pul massasini chegaralash bo'yicha tadbirni amalga oshirish qiyin, agar:

- a) markaziy bank tijorat banklari majburiy rezervlari me'yorini kamaytirish huquqiga ega bo'lmasa;
- b) tijorat banklari sezilarli ortiqcha rezervlarga ega;
- v) shahsiy jamxarmalar hajmi juda katta;
- g) oltin katta miqdorda eksport qilinadi;
- d) hususiy firmalar va aholi katta miqdorda qo'shimcha davlat qimmatbaho koxozlarini sotib olishga harakat qiladi.

20 . "Hisob stavkasi" termini nimani bildiradi?

- a) davlat qimmatbaho qoxozlarini harid qilganda markaziy bank uchun narx pasayishi darajasini;
- b) tijorat banklari beradigan ssudalar hajmini kamaytirish maqsadida markaziy bank tomonidan ta'sir ko'rsatish darajasini;
- v) tijorat banklariga beriladigan ssudalar protsent stavkasini;
- g) pul massasini va YaMM hajmini oshirish uchun markaziy bank tomonidan ta'sir ko'rsatish darajasi;
- d) hamma yuqoridagi javoblar noto'g'ri.

21. Hisob stavkasini oshirish odatda nimaga olib keladi:

- a) aksiya va obligatsiya narxlari oshishiga;
- b) aksiya narxi oshishiga va obligatsiyalar narxi pasayishiga;
- v) aksiyalar narxi pasayishi va obligatsiyalar narxi oshishiga;
- g) aksiya va obligatsiyalar narxi pasayishiga;
- d) bironta ko'rsatilgan natijaga keltirmaydi.

22. Prosent stavka darajasi o'zgarishi quyidagi qaysi YaMM elementlariga ko'proq ta'sir etadi?

- a) iste'mol harajatlari;
- b) investitsiyalar;
- v) davlat harajatlari;
- g) eksport;
- d) import.

11 - MAVZU. OCHIQ IQTISODIYOT MODELIDA MUVOZANAT.

Amaliyot darslarida bajariladigan mashg'ulotlar.

1-mashg'ulot. Quyida A mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalari ro'yxati keltirilgan:

mln. dollar.

A mamlakat rezidentlarining xorijiy firmalar qimmatbaho qog'ozlarini sotib olishi	50
A mamlakatga tovar va xizmatlar importi	100
A mamlakatdan tovar va xizmatlar eksporti	120
A mamlakatga boshqa mamlakatlardan pul o'tkazishlar	30
A mamlakat firmalarining qimmatbaho qog'ozlarini chet elliklarga sotish	60
A mamlakatga oltin import qilish	60

A mamlakatning to'lov balansini tuzing.

2-mashg'ulot. Quyida shveysariya frankiga talab va uning taklifi ma'lumotlari keltirilgan:

Frank narxi (dollar).	Frankka talab hajmi (mln. frank).	Frank taklifi hajmi (mln. frank).
0.80	300	400
0.70	320	370
0.60	340	340
0.50	360	310
0.40	380	280

- dollarning muvozanat valyuta kursi qancha?
- shveysariya frankining valyuta kursi qancha?
- valyuta bozorida qancha miqdorda dollar sotib olinadi?
- valyuta bozorida qancha miqdorda shveysariya franki sotib olinadi?

3-mashg'ulot. a) faraz qilamiz Germaniya X maxsulotini AKSHlaridan import qiladi. Agar AQSHda bu maxsulot narxi 5 dollar bo'lsa, valyuta kursi 1 dollarga – 3 marka bo'lganda Germaniyada bu mahsulot narxi qancha bo'ladi? 1 dollarga – 4 marka va 1 dollarga – 2 marka valyuta kursi bo'lganda-chi?

b) jadvalda Germaniyada X mahsulotga talab hajmi va uning narxi o'rtasidagi bog'liqlik ko'rsatilgan (markada). Jadvalda Germaniya aholisining turli valyuta kurslarida bu mahsulotga qilishi mumkin bo'lgan xarajatlari ham ko'rsatilgan.

Jadvalga keltirilmagan ma'lumotlarni kiriting.

Valyuta kursi	AQSHda X mahsulotning narxi (doll.)	Germaniyada X mahsulotning narxi	Talab hajmi (birlik).	Jami xarajatlar (doll.).
4 marka = 1 doll.	5		500	
3 marka = 1 doll.	5		1000	
2 marka = 1 doll.	5		1200	

c) chizmada dollar (markada) narxining va X mahsulotning nemis import qiluvchilari talab namoyon etadigan dollar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating.

4-mashg'ulot. a) faraz qilamiz AQSH Germaniyadan Y mahsulot import qiladi. Quyida keltirilgan jadval AQSHlarida bu mahsulotga bo'lgan talabni aks ettiradi. Jadvalda amerikaliklarning turli valyuta kurslarida bu mahsulotga qilishi mumkin bo'lgan xarajatlari ham ko'rsatilgan.

Jadvalga keltirilmagan ma'lumotlarni kiriting.

Valyuta kursi	Germaniyada Y mahsulotning narxi (marka)	AQSHda Y mahsulotning narxi (doll.)	Talab hajmi (birlik).	Jami xarajatlar (doll.).
4 marka = 1 doll.	12		2000	
3 marka = 1 doll.	12		1250	
2 marka = 1 doll.	12		500	

b) chizmada dollar (markada) narxining va Y mahsulotning amerikalik import qiluvchilari talab namoyon etadigan dollar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsating.

c) agar AQSH va Germaniya o'rtasidagi xalqaro savdo faqat X va Y mahsulotlar bilan cheklanadi deb faraz qilsak, muvozanat valyuta kursi qanday bo'ladi?

d) agar valyuta kurslari belgilangan deb faraz qilsak va nemis markasining almashish kursi 1 marka = 0.30 doll. bo'lsa, nima kuzatiladi: nemis markalari defitsiti-mi yoki ortiqchaligi-mi?

5-mashg'ulot. Faraz qilamiz A va B mamlakatlarida oltin standarti qabul qilingan. A mamlakat valyutasi birligi 1/40 oltin untsiyasiga tenglashtirilgan (untsiya = 28.3 g.), B mamlakat valyutasi birligi esa 1/8 oltin untsiyasiga tenglashtirilgan.

- a) A mamlakatning valyuta birligi B mamlakat valyutasida qancha turadi?
- b) B mamlakatning valyuta birligi A mamlakat valyutasida qancha turadi?
- c) agar B mamlakatning bir valyuta birligi A mamlakatning uch valyuta birligiga sotila boshlasa, unda qanday qilib muvozanat almashish kursi yana o'rnatiladi?

Diagnostik tekshirish uchun testlar.

1. A mamlakat bir birlik resurs ishlatib, 1 tonna bug'doy yoki 4 tonna ko'mir ishlab chiqarishi mumkin. B mamlakat 2 tonna bug'doy yoki 5 tonna ko'mir ishlab chiqarishi mumkin, unda:

- a) A mamlakat bug'doy eksport qilib, ko'mir eksport qiladi;
- b) B mamlakat bug'doy eksport qilib, ko'mir eksport qiladi;
- c) A mamlakat bug'doyni eksport ham, import ham qilmaydi;
- d) B mamlakat ko'mirni eksport ham, import ham qilmaydi;
- e) hamma oldingi javoblar noto'g'ri.

2. Agar Qozog'iston O'zbekistonga bug'doy eksport qilsa, O'zbekiston Qozog'istonga tekstil eksport qilsa, unda bug'doy narxi tekstil narxiga nisbatan oshsa, bu nimani bildiradi?

- a) Qozog'iston uchun savdo sharoitlarining yaxshilanishini;
- b) Qozog'istonning savdo imkoniyatlari chizig'i qiyaligining o'zgarishi;
- c) O'zbekistonning savdo imkoniyatlari chizig'i qiyaligining o'zgarishi;
- d) hamma yuqoridagi javoblar to'g'ri;
- e) faqat a) va b) javoblar to'g'ri.

3. Proteksionizm tarafdorlari boj, kvota va boshqa savdo to'siqlari quyidagilarning qaysi biri uchun zarur deb ta'kidlashadi?

- a) xorijiy raqobatdan tarmoqlarni himoya qilish uchun;
- b) ichki bandlikni oshirish uchun;
- c) dempingning oldini olish uchun;
- d) mamlakat muhofazasini ta'minlash uchun;
- e) hamma oldingi javoblar to'g'ri.

4. Quyida keltirilgan javdaldagi ikki mamlakatda (A va B) gazmol va yaxna ichimlik ishlab chiqarish hajmlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan (faqat birta resurs - mehnat ishlatiladi):

Soatliq ishlab chiqarish	A mamlakat	B mamlakat
Gazmol (metrda)	5	15
Yaxna ichimlik (litrlarda)	10	20

Ikki mamlakatni taqqoslab va ular o'rtasidagi savdo imkoniyatlarini tahlil qilib, ta'kidlash mumkinki, A mamlakat:

- a) gazmol ishlab chiqarishda absolyut afzalliklarga ega;
- b) yaxna ichimliklar ishlab chiqarishda absolyut afzalliklarga ega;
- c) gazmol ishlab chiqarishda nisbiy afzalliklarga ega;
- d) yaxna ichimlik ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega;
- e) biron-bir tovar bo'yicha nisbiy afzallikka ega emas.

5. Avvalida ikki mamlakat o'rtasida o'zaro savdo mavjud emas. A mamlakat valyutasi - a, B mamlakat valyutasi - b. A va B mamlakatlarda gazmol narxi mos ravishda 20 a va 60 b. Agar har bir mamlakat bir-biridan bog'liq bo'lmagan ravishda har ikkala tovarni ishlab chiqarsa, unda yaxna ichimliklar narxi mos ravishda teng bo'lishi kerak:

- a) 5 a, 20 b;
- b) 40 a, 45 b;
- c) 10 a, 80 b;
- d) 10 a, 60 b;
- e) 40 a, 80 b.

6. Agar ikkala mamlakat o'rtasida o'zaro savdo boshlansa, unda ehtimol qilish mumkinki, B mamlakat:

- a) yaxna ichimlik import qiladi;
- b) yaxna ichimlik eksport qiladi;
- c) ham gazmol, ham yaxna ichilik import qiladi;
- d) ham gazmol, ham yaxna ichimlik eksport qiladi;
- e) hech narsa eksport ham, import ham qilmaydi.

7. Savdo munosabatlari jarayoni boshlanishi oldidan har bir mamlakat uchun ichki ishlab chiqarish imkoniyatlarini aks ettiruvchi o'z narx nisbatlari xarakterli edi. Agar A va B mamlakatlar o'rtasida savdo rivojlansa, unda yaxna ichimlik narxining gazmol narxiga nisbati:

- a) A mamlakatda o'sadi, B mamlakatda pasayadi;
- b) A mamlakatda pasayadi, B mamlakatda o'sadi;
- c) har ikkala mamlakatda o'sadi;
- d) har ikkala mamlakatda pasayadi;
- e) har ikkala mamlakatda o'zgarmaydi.

8. Agar ikkala mamlakatda barqaror savdo aloqalari o'rnatilgan bo'lsa, unda gazmol narxining yaxna ichimlik narxiga nisbati tahminan nimaga teng?

- a) 1,2 har ikkala mamlakatda;
- b) 1,8 A mamlakatda, 1,5 B mamlakatda;
- c) 1,6 har ikkala mamlakatda;
- d) 2,1 A mamlakatda, 1,3 B mamlakatda;
- e) 2,3 har ikkala mamlakatda.

9. Agar har kunlik gazmol eksporti 500 metrliigi ma'lum bo'lsa, unda 8 testda aniqlangan narx nisbatini hisobga olgan holdagi har kunlik yaxna ichimlik eksporti nimaga teng?

- a) 600 litr A mamlakatdan;
- b) 600 litr B mamlakatdan;
- c) 800 litr A mamlakatdan;
- d) 800 litr B mamlakatdan;
- e) 1150 litr A mamlakatdan.

10. Agar o'zbek so'mi narxi dollarga nisbatan bir so'm uchun 1,5 dan 1,3 tsentgacha tushsa, unda O'zbekistonda 5000 so'mga sotiladigan magnitofon narxi:

- a) 10 dollarga tushadi;
- b) 7,5 dollarga tushadi;
- c) 5 dollarga tushadi;
- d) 10 dollarga o'sadi;
- e) hamma javoblar noto'g'ri.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I .A “Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir.”, Toshkent, “O`zbekiston”, 2005 y
2. Axmedov D.K va boshqalar “Mikroiqtisodiyot” O`zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg`armasi nashriyoti Toshkent 2004 y
3. Nizomov A.B, Namazova N.J, Amonov O` . N “Mikroiqtisod” O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti Toshkent 2004 y
4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo`rayev T “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent 2002
5. «O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» Iqtisodiy ilmiy oynoma 2003 yil 3-12 sonlar.
6. “Amaliy iqtisod”, “Sharq” nashriyoti Toshkent 1996 y
7. O`zbekistonda biznes keyslar: O`zbekiston Respublikasidagi biznes ta`limotida “Keys-stadi” uslubining qo`llanilishi Toshkent “Akademiya” 2006 y
8. M.Hakimova “Makroiqtisodiyot”.T., 2001 y.
9. Z.Yo`ldoshev, M.Qosimov. “Makroiqtisodiyot asoslari”. T., 1994 y.
10. Mikro-makroekonomika. Praktikum. Pod redaksiyey IO.A.Ogibina. Sankt-Peterburg, 1994 g.
11. Nizomov A.B, Namozova N.J, “Mikro va makroiqtisod” Praktikum Buxoro 1998 y
12. Namozova N.J Rustamov N.I “Makroiqtisodiyot” fanidan mustaqil ishlar uchun topshiriqlarni bajarish bo`yicha uslubiy ko`rsatma Buxoro 2006 y

«Internet» tarmog`i bo`yicha tavsiya etiladigan veb-saytlar:

1. [http:// www.cer.uz](http://www.cer.uz)
2. [http:// www.review.uz](http://www.review.uz)
3. [http:// www.uzland.uz](http://www.uzland.uz)
4. [http:// www.imf.org](http://www.imf.org)
5. [http:// www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)
6. [http:// www.pca.uz](http://www.pca.uz)
7. [http:// www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)
8. [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)

